1896-1899-yillarda Le Bonning tajribalari shuni ko'rsatdiki, yangi nurlar yorug'lilik xususiyatlariga ega emas, lekin katod nurlari, ya'ni elektronlar bilan bir xil. Bu shuni anglatadiki, Bekkerelning birinchi tajribalari, ehtimol, noto'g'ri bo'lgan. Bekkerelning o'zi ham xuddi shu nuqtai nazarga 1899-yilga kelib Le Bonning da'vosini tan olmagan holda kelgan va Bekkerelning tarafдорлari u darhol uran nurlari aks etmasligini yoki sinmasligini ko'rsatganligini ta'kidlashda davom etishgan. Bularning barchasidan tashqari, savol qolmoqda: Anri Bekkerel Niepsning ishi haqida bilganmi yoki u haqida unutganmi? Garchi Aleksandr Edmond Bekkerel Niepsning maqolalariga *Comptes rendus de L'acad mie des Sciences* (1857-1867) o'zining asosiy monografiyasida *La lomiere, ses causes et ses effets*, 1867-1868-yillarda murojaat qilgan. Bularning barchasi 1903-yilda Anri Bekkerelning Nobel mukofotini qo'lga kiritganidan so'ng, har doim ham ularni tushunish va tushuntirish uchun emas, balki kashfiyotlar uchun berilganida nuqta qo'yildi. E'tibor bering, avvalgisiga murojaat qilish Anri Bekkerelga zarar yetkazmaydi, chunki Nobel mukofoti berilgungacha qadar Nieps allaqachon vafot etgan edi. Nobel mukofotini vafot etganlarga berilmaydi. Nobel mukofotini qo'lga kiritgandan so'ng, Anri Bekkerel tanqidchilariga javob berishni to'xtatdi.

Agar Abel Nieps de Sent-Viktorning hikoyasi bizga nimanidir o'rgatsa, demak, ilm-fan tarixini Nobel mukofotini tarixidan ajratish kerak. Ehtimol, oxir-oqibat



1895-yilda ta'sis etilgan Nobel mukofoti

adolat tiklanadi. So'nggi yillarda Abel Nieps de Sen-Viktor Fransiyada va boshqa bir qator mamlakatlarda radioaktivlikning taniqli kashfiyotchisi bo'lganligi haqidagi gaplar bejiz emas. Boshqa radioaktiv elementlar – poloniy va radiy kashf etilishining keyingi tarixi ham xuddi shunday dramatik. Boguslav Brauner (1855-1935) Chexyaning eng taniqli kimyogarlaridan biri, 1896-yil 19-avgustda ser Uilyam Ramsaydan (1852-1916) xat oldi. Unda yangi noyob gazlarni kashf etish imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'rganish uchun eliazit namunalarini sotib olish to'g'risida iltimosnoma mavjud edi. Boguslav Brauner yoshlidan ruda tog'lari minerallari bilan ishlagan va keyinchalik mineralogist bo'lgan. U Ramsayga Yoaximstal yaqinidagi Sent-Elias konidan uran rudasi namunalarini yubordi va Ramsay asta-sekin eliazitdan barcha noyob gazlarni chiqarib yubordi. O'sha yili Brauner Shvetsiyadan kelgan mineral – serit va Chexiya eliaziti g'ayrioddiy nurlanishni tarqatishini aniqladi. Shunday qilib, Anri Bekkerel va Boguslav Brauner uran minerallari bilan bir vaqtning o'zida tajriba o'tkazdilar. Farqi shundaki, Brauner bu haqda hech narsa nashr etmagan, chunki uning ilmiy qiziqishi ancha kengroq edi – umuman noyob elementlarni eksperimental o'rganish. 1897-yilda Brauner Vena shahridagi ta'lif vazirligiga 5000 kg ga yaqin uran rudasini ajratish to'g'risida so'rov yubordi. Shuningdek, ustaxonani ijaraga olish va uch-to'rt ishchini yollash uchun ruxsatnomalar haqida. U o'z so'rovini spektral tahlil va boshqa analistik usullar bilan ushbu uran rudasida yangi element va u bilan bog'liq noma'lum nurlanishni o'rnatganligi bilan asosladi. U uranning yuqori intensivligini o'lchadi va elementni Avstriya nomi bilan "Avstriya" deb atashni niyat qildi.

Hukumat Braunerni tadqiqotchini mamlakatdagi birinchi kimyogar sifatida yuqori baholadi, ammo

fugaro sifatida emas. Gap shundaki, 1882-yilda Brauner ishlagan Charlz universiteti Chexiya va nemis (Karl-Ferdinand universiteti)ga bo'lingan. Bir qator o'qituvchilar va ular orasida Brauner alohida binolar va laboratoriyalarni yangi o'quv yurtiga topshirishga rozi emas edilar, chunki ularda ma'ruzalar o'qish va tajribalar o'tkazish uchun joy yo'q edi. Bundan tashqari, Chexiya universitetini tamomlagan chexlar faqat nemis tilini erkin bilgan holda davlat xizmatiga kirishlari mumkin edi. Natijada, vazirlik Braunerning iltimosini qat'iy rad etdi. Rad etish unga katta ta'sir ko'rsatmadи. U xotirjamlik bilan o'zining sevimli noyob tuproq elementlari bilan tajribalarini davom ettirdi. Elementlarning davriy jadvalidagi 14 ta noyob tuproqning yakuniy tasnifi uning uchun muhim edi. Brauner hali talaba bo'lgan vaqtlarida D. I. Mendeleyevning ashaddiy tarafdoi bo'lgan. 1881-yildan boshlab Boguslav Brauner va D. I. Mendeleyev o'rtasida jonli yozishmalar bo'lib o'tdi, 1883-1901-yillarda esa ular uch marta uchrashdi. D.I. Mendeleyev Braunerni olim sifatida yuqori baholadi va uni davriy qonunning haqiqiy mustahkamlovchilaridan biri deb hisobladi.

## Moychiroq – asrlar yog'dusi

**Masharib Abdullayev,**  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

Insoniyat yaralibdiki, yorug'likka, nurga intiladi. Quyosh odamzod hayotida muhim o'rin tutadi, ammo qorong'u oy nurisiz kechalarda inson sun'iy yorug'likka ehtiyoj sezadi. Ibtidoiy odamlar sovuqdan himoyalish maqsadida so'ngi paleolit davrida, ya'ni bundan 40 ming yillar ilgari sun'iy olovni kash etishgan. Ular chaqmoq toshni bir-biriga urib, yoki yog'ochni bir-biriga ishqalash natijasida olov chiqarishni o'rganib olishgan. Keyin bu olovni o'chirmasdan saqlashga harakat qilingan. Olov – bиринчи navbatda sovuqdan himoyalasnish vositasi edi. Ammo olov yorug'lik manbai hamdir.

Dastlab odamlar daraxt shoxlariga eski hayon junli terilarini o'rab, hayvon moyi shimdirlib, masha'ala shaklidagi olovdan yorug'lik manbayi sifatida foydalanganlar. Shuningdek, u hayvonlarni qo'rkituvchi haydash vositasi ham bo'lgan.



O'rta asrlar moychirogi

Arxeologik tadqiqotlar uylarni yoritish uchun dastlabki yoritish jihozlari – moychiroqlar bronza davridapaydobo'lganliginiko'ssatadi. Arxeologlarning ta'kidlashicha, avval metalldan moychiroqlar quyilgan va keyinchalik moychiroqlarga talabning oshishi bilan, ular sopoldan ko'plab ishlab chiqarila boshlangan. O'zbekiston hududidagi dastlabki moychiroqlar Janubiy O'zbekiston hududlaridan – Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklaridan aniqlangan.

Moychiroq – sopol, tosh va metalldan yasalgan, suyuqlik saqlanadigan joyi bo'lgan, dumaloq yoki uzunchoq shakldagi buyumdir. Arxeologik tadqiqotlarda moychiroqlar va ularning parchalari ko'p topiladi. Bu mil.avv. III asrdan XX asr boshlarigacha yoritish uchun asosiy vosita moychiroqlar bo'lganligi bilan bog'liq.

Tosh va metalldan yasalgan moychiroqlar uzoq muddat xizmat qilishi bilan ajralib turgan. Moychiroqlar toshning talk degan turidan tayyorlangan. Bu turdag'i tosh ancha yumshoq bo'lib, ishlov berishga qulay hisoblanadi. Metall moychiroqlarning ikki, uch, to'rt va undan ko'p uchli shakllari ham aniqlangan. Moychiroqlar ko'p ishlatalishi natijasida qorayib ketganligi sababli, xalq tilida "qora chiroq" deb yuritilgan.

Xorazmdagi ilk moychiroqqachon paydobo'lganini aniq aytish qiyin. Moychiroqlar Respublikamizning ko'plab muzeylarda, xususan O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston madaniyat tarixi muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi, Farg'ona viloyat tarixi davlat muzeyi, Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyat tarixi muzeyi, "Ich'an qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasasi va boshqalarda saqlanadi. Milodiy III-IV asrlarga oid kosasimon moychiroq isiriqdon – tutatqi idishi sifatida qayd qilingan [<http://goskatalog.uz/432215>]. Ammo mazkur buyumning topilgan joyi aniq emas, shu bois sanasi ham ishonchli hisoblanmaydi. "Ich'an qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida KP 476 raqami ostida saqlanayotgan isiriqdon tashqi ko'rinishidan zamona viy buyumga o'xshaydi [O'zbekiston madaniy merozi. "Ich'an-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasasi to'plami. – Toshkent, 2021. 63 b.]. Qizil angobli mazkur buyum pasportida IV-V asrlar Xorazm deb



Moychiroqlarning dastlabki ko'rinishi



Chorchiroy. Langar ota masjidi. Qashqadaryo. XV-XVI asrlar.

ko'rsatilgan. Ammo aynan qaysi yodgorlikdan, qachon topilgani ko'rsatilmagan. Isiriqdon fond ro'yxatida mis deb qayd qilingan. Eksponat tashqi tomonida turli tasvirlar ham uchraydi.

Dastlabki moychiroqlar kosacha shaklida bo'lib, tanasi yumaloq, labining yuqori qismi ichkariga egilgan, uchida pilik uchun qisqargan shakldagi, tutqichsiz buyum edi. Ular odatda sirsiz ishlangan, ustiga bir xil rangda (qizil, qora) angob berilgan. Moychiroqlarga o'simlik moyi yoki hayvon yog'i quyilgan.

VII-VIII asrlarga oid kosasimon isiriqdonning ikki cheti qayrilgan ko'rinishi keyingi moychiroqlar shakli uchun asos bo'lib xizmat qilgan [<http://goskatalog.uz/595217>; O'zbekiston madaniy merosi. "Ichangal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi to'plami. – Toshkent, 2021. 64 b. KP 5958/53. diam. 14 sm, Bal. 10,5 sm.].

Bu davrdan boshlab, moychiroqlar sirlangan shaklda tayyorlangan. Moychiroq ustiga bir xil rangdagi – qora, sariq, yashil, ko'k, jigarrang sir berilgan. IX-XV asrlarga oid moychiroqlar 3 ta qismdan tashkil topgan: dasta, jo'mrak va moy saqlanadigan asos qismi. Hajm jihatidan turlicha tayyorlangan. Keng tarqalgan o'lchamlar uzunligi

8-10 sm, balandligi 5-6 sm bo'lgan.

Moychiroqlarni shakliga ko'ra: dumaloq va uzunchoq, sir berilishiga ko'ra: sirlangan va sirlanmagan, bezalishiga ko'ra: beazkli va bezaksiz guruhlarga ajratish mumkin.

Respublikamizning Samarcand, Buxoro, Farg'ona vodiysi, Surxondaryo, Xorazm kabi ko'plab hududlaridan o'rta asrlarga oid sirlangan sopol moychiroqlar topilgan. Ularning tuzilishi bir-biriga yaqin bo'lsa-da, shaklida ayrim farqlar mavjud, bezaklari yaqqol farq qiladi [<http://goskatalog.uz/415772>, <http://goskatalog.uz/305208>, <http://goskatalog.uz/305268>].

Xorazmga oid sirlangan sopol moychiroqlar Xiva, Hazorasp, Kat qal'a (Shovot), Guldersun qal'a, Qavatqal'a, Mizzakxon, Yonpiq qal'a, Qizilqal'a va boshqa arxeologik yodgorliklardan aniqlangan va hozirda respublikamiz muzeylarida saqlanmoqda.

IX-XV asrlarda asosan uzunchoq, sirlangan va bezakli moychiroqlardan keng foydalilanigan. Moychiroqlar qolipkorli usulida tayyorlangan. Buning uchun moychiroq ikkita alohida qolipda ishlanib, keyin bir-biriga yopishtirilgan. Ayrim turlarida qo'lda ishlanib, ustiga yana loydan bezaklar yopishtirilgan.



Toshchiroq. Yonpiqqal'a, mil.avv. IV – I asr

Moychiroqlarning uchli tomoni pilik yonib turishi uchun qisqartirib ishlangan, uning qaramaqarshi tomoniga esa dasta ishlangan. Kosasimon moychiroqlar – pilik yonadigan uchli qismi va moy turadigan asos – qorincha qismlaridan iborat bo'lgan.

Moychiroqlarning asosan dastaning yuqori qismiga naqsh tushirilgan. Naqshlar archasimon, daraxt shoxlari shaklida va o'simliksimon ko'rinishlardabo'lgan. Mavoraunnahr moychiroqlarida kalligrafik bezaklar ham mavjud [O'zbekiston madaniy merosi. O'zbekiston Davlat san'at muzeyi to'plami (Toshkent). – Toshkent, 2020. 84 b. Ильясова С.Р., Ильясов Дж. Я., Имамбердыев Р.А., Исхакова Е.А. «Нет блага в богатстве...» глазурованная керамика Ташкентского оазиса IX-XII веков. – Москва, 2016. 155, 268 с.; <http://goskatalog.uz/415772>], ammo Xorazm moychiroqlarida yozuvli idishlar uchramadi.

Meshekli karvonsaroyi (Xorazm viloyati, Tuproqqa'l'a tumani)dan topilgan XIII asr boshlarga oid moychiroq [Xorazm Ma'mun akademiyasi. – Toshkent: Sharq, 2006. 45 b.; Xorazm tarixi va madaniyati doimiy ekspozitsiyasi] sirlangan, to'q sariq rangda. Ikki yon tomoniga tirkab, bezak berilgan. Dastasi oddiy qayrilma shaklida bajarilgan. Moychiroq uchida olovning kuygan izlari saqlangan.

Kam saqlangan o'ziga xos noyob buyumlardan birisi bu – moychiroq uchun maxsus chiroqdondir. I. Savitskiy nomidagi QDSM fondida saqlanayotgan ushbu buyum sopoldan qo'lda tayyorlangan. Chiroqdon XII-XIII asrlarga oid bo'lib, Yonpiqqal'a yodgorligidan topilgan [КП 36604. Бал. 24 см, диам. 19 см.].

Yuqori qismida ko'tarib yurish uchun mo'ljallangan dastasi bor. Old tomonida moychiroqni o'rnatish uchun to'g'ri to'rtburchak shaklida teshik hosil qilingan. Chiroqdon sirlanmagan va bezak berilmagan bo'lsa-da, shakl jihatdan noyobdir.

Sopol chiroqlar butun o'rta asrlarda Markaziy Osiyoning shahar va qishloq aholisi uchun hayotning muhim buyumi bo'lib xizmat qilgan.



Moychiroq. Yonpiqqal'a, mil.avv. IV – I asr

Shu o'rinda chiroqdon atamasini ham izohlash o'rinali. Chiroqdon bu – sopoldan tayyorlangan buyum bo'lib, uning ichida 2-3 ta moychiroq bo'lgan. Odatda chiroqdonlar ibodatxona, masjid, bozor-karvonsaroy kabi jamoat joylarida qo'yilgan va insonlar undan o'z moychiroqlarini yoqib olib uchun foydalanishgan. Zarur hollarda ichidagi moychiroqlarni o'zi bilan olib ketishi mumkin bo'lgan. Bu kabi chiroqdonlar Nukus, Buxoro, Farg'ona muzeylarida saqlanib qolgan. Chiroqpoya degan buyum chiroqdonlar yoki moychiroqlar uchun taglik vazifasini bajargan.

Isiriqdon yoki tutaqidon deb nomlangan idishlar ham mavjud bo'lib, ular asosan davolash maqsadida yoki diniy marosimlarda ishlatilgan.

Hozirda yoritish vositalari juda ko'p va xilmoxildir. Asrlar yog'dusi bo'lgan moychiroqlar bugungi kunda ayrim hollardagi e'tiqodiy marosimlardan tashqari deyarli ishlatilmaydi.



Chiroqdon. Meshekli karvonsaroyi, Xorazm. XII-XIII asrlar

# Xorazmshoh Ali ibn Ma'munning noyob tangalari

**Shohruhmirzo Ismoilov,**  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiton tarixida o'chmas iz qoldirgan Ma'muniylar sulolasining vakili Xorazmshoh Ma'munning o'g'li Ali (999-1008) otasining vafotidan qisqa vaqt o'tib, harbiylar tomonidan taxtga qo'yiladi va unga bay'at qilishadi [1, 46]. 999-yil oxirlarida Buxoroga Qoraxoniylar navbatdagi hujumini amalga oshiradilar. Hujum natijasida, Mavarounnahr va Xurosonda ikki yuz yilga yaqin vaqt hukmronlik qilgan Somoniylar sulolasi taxtdan ag'dariladi [2, 184]. Shundan so'ng Ali ibn Ma'mun hukmronlik qilayotgan davlat mustaqil davlatga aylanadi. Bu vaqtida uning hududiga Xorazmdan tashqari Shimoliy Xurosondagi Farova, Niso shimolda Mang'ishloq yarim oroligacha bovgan huduqlar kirgan. Chunki, so'nggi yillarda olib borilgan izlanishlar davomida Ali ibn Ma'munning jami 33 ta tipga mansub Jurjoniya, Kat, Farova, Niso va xatto Buxoroda zarb qilingan tangalari aniqlangan [3, 52]. Somoniylar davlatining tugatilishi Xorazmga siyosiy mustaqillik bergan bo'lsa-da, uni endi O'rta Osiyo va Afgvonistonda tashkil qilingan ikkita yangi, qudratli davlatlar - Somoniylar davlati o'rniда tashkil topgan Qoraxoniylar va Xurosonda tashkil topgan G'aznaviylar davlati qarshisiga chiqarib qo'yadi. Xorazm endi bu davlatlar bilan bevosita chegaradosh bo'lib, istalgan vaqtida hujum qilishi va Xorazmni egallashi mumkin edi. Shuning uchun, Ali ibn Ma'mun mustaqillikning ilk yillardidan betaraf siyosat yuritishga va bu ikki qudratli davlat orasida iloji boricha uzoqroq tirik qolish siyosatini yuritadi [4].

Hijriy 390-yilda (mil. 1000) Somoniylar vakili Abu Ibrohim Ismoil ibn Nuh Qoraxoniylar qo'l ostidagi O'zgan shahridan asirlikdan qochib Buxoroga va undan Xorazmga keladi [1, 51]. Bu voqeа Abdujabbor Utbiy tomonidan shunday ta'riflanadi: "Muntasir asirlikdan qutilgach, Buxoroda keksa bir inson yonida

askarlar o'zini topishdan umidini uzguniga qadar berkinib yotdi. So'ng qal'alarni yiqituvchi bir qilich, har narsani teshib, uchqun chiqarib uchuvchi bir yulduz, har narsani yoqib qovurgan olov kabi intiqom olish uchun Allohdan madad tilab Xorazmga bordi ..." [5, 353]. Xorazmda Somoniylar davlatidan qolgan askarlar, Qoraxoniylarga muxolif kuchlar va o'ziga sodiq odamlarni to'plab Mavarounnahrga hujum qiladi. U markaziy shaharlar Buxoro va Samarqandni egallab Ismoil al-Muntasir (hij. 390-395\mil. 1000-1005) nomi bilan Somoniylar davlatini qayta tiklaydi [6, 535-548].

Bu qo'shinni tuzishda unga Xorazmshoh Ali ham yordam bergani aniq. Chunki bu yo'l bilan Xorazmshoh ikkita siyosiy maqsadga erishadi. Birinchidan, Somoniylarning qonuniy vakili sifatida ularning eski hududlarini talab qilayotgan Ismoil al-Muntasir bilan iliq aloqalarni yo'lga qo'yadi. Ikkinchidan, Xorazm mustaqilligiga tahdid solayotgan ikki siyosiy kuch, Qoraxoniylar va G'aznaviylar nigohini Xorazmdan uzoqlashtirib, Somoniylar vakiliga qaratadi. Shuning o'zi ham Ali ibn Ma'munning mohir siyosatchi sifatida yetishganligidan dalolat beradi. Uning bu harakati Xorazmda uzoq yillar tinchlik o'rnatilishiga va hukmdor sifatida madaniyat, san'at, ilm-fanning rivojiga homiylik qilishini ta'minlaydi.

Shu davrda mavjud bo'lgan musulmon olami an'analarga ko'ra, har bir musulmon davlatda hukmdor taxtga chiqqach o'z nomidan tangalar zarb qilar va unda arab xalifasining nomini qayd qilib qo'yari edi. Bu belgilar hukmdorga qonuniy hokimiyat egasi ekanligini bildirish bilan birga, shu davlat va hukmdorning xalifaga qarashli vassal ekanligini anglatar edi. Shunga ko'ra Ali ibn Ma'mun davrida zerb qilingan aksariyat tangalarda ham shu davrda hukmronlik qilgan Al-Qodir billoh (991-1031) [7, 14] nomlari qayd qilinganligini ko'rish mumkin.

Xorazmshoh Ali ibn Ma'munning shunday xususiyatga ega tangalaridan ikkitasi yaqinda Xorazm viloyatidagi shaxsiy kolleksiyalardan birida aniqlangan bo'lib, ular sifati past bo'lgan kumush tangalardir.

Tangalardan birinchisi katta ehtimol bilan Jurjoniya shahrida (Ko'hna Urganch) zerb qilingan bo'lib, qachon zerb qilingani noma'lum. Tanganing old tomoni markazida besh qatorda "مل االاصل اخ ملاب ردقان اهل كييرش الاهدى و مللا االا" ya'ni "Xolid. Allohdan o'zga iloh yo'q va uning sherigi yo'qdir. Al-Qodir billoh" deb yozilgan. Xorazmda birmuncha keng tarqalgan ushbu jumla islom dinining asosi hisoblangan "Tavhid kalimasi"ning bir qismidir [19]. Bunday jumlalar islom tangalarida birinchi marta hijriy 66-yilda (mil. 686) xalifa Abdulmalik ibn Marvon (mil. 685-705/ hij. 65-86) tangalarida paydo bo'lgan [8, 182]. Xorazm tangalaridan o'rın olgan ushbu matn mo'g'ullar davrigacha to'liq saqlanib qoladi.

Tangada qo'llanilgan "مل االا" ya'ni "Al-Qodir billoh" ismi 991-1020-yillarda hukmronlik qilgan xalifa Abul Abbas Ahmad ibn Is'hoq ibn Muqtadir billoh ibn Mu'tazidning taxallusidir [9, 39].



Kohna Urganch (Jurjonya) shahrida taxminan 1000-yillarda zarb qilingan Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun tangasi

Tanganing aversi qirrasi bo'ylab ikki qator jumla yozilgan. Biroq, bu yozuvlar butunlay o'chib ketgan. Bu yerda Qur'onning Tavba surasi 33-Saf surasining 9-oyatlarining o'zgartirilgan shakli yozilgan. Ichki aylanasida zarb qilingan joyi va sanasi qayd qilingan. Lekin, bu jumlanı ham to'liq o'qish imkonsiz.

الداعل ا کلملأا داعل ا کلملأا  
Tanganing orqa tomonida "Odil malik Ali ibn Ma'mun Xorazmshoh" jumlesi yozilgan. Tanganing gardishidagi jumla butunlay o'chgan. Bu yerda Rum surasi 4-oyati yozilgan bo'lishi mumkin.

Mazkur tangada qo'llanilgan "**Al-Malik al-adl**" (الملك العادل) unvoni Ali bn Ma'munning Jurjonya, Farova, Niso, Xorazmda zarb qilingan va zarb yeri noma'lum bo'lgan bir qancha tangalarida qo'llanilgan. "الداعل" so'zi arab tilida "odil", "adolatli", "teng" ma'nolariga ega bo'lgan so'z bo'lib, bu yerda "malik" unvoni bilan birga "Odil podshoh" yoki "odil hukmdor" ma'nolarida kelgan. Ushbu so'zga ma'no jihatidan to'liq mos keluvchi "الحاكم العادل" shakli ilk bor islom tangalarida 132-218-yillar (mil. 750-830) oralig'ida zarb qilingan turli tangalarda qo'llanilgan [10, 112-126]. Shuningdek, O'rta Osiyoda ushbu so'z qayd qilingan tangalar ilk fals tanga Buxoroda xalifalar nomidan 185-209-yillarda (mil. 801-825) zarb qilingan [11, 634].

Tadqiqotchi olim A.Makarov o'z maqolasida bu tangani 12-raqam bilan belgilab tanga hijriy 396-yilda (mil. 1006) Jurjonya zarb qilinganligini qayd qilgan. Mazkur tanganing boshqa 4 ta namunasi o'tgan asrning boshlarida Rossiya davlati hududidagi Kresheniy Baran hududidan topilgan xazina tarkibida bo'lgan va ular 3,85-4.70 grammgacha bo'lgan vaznda qayd qilingan.

Tangalardan ikkinchisini qayerda va qachon zarb qilinganligini aniqlash imkonsiz. Mazkur tanganing aversida islom dinidagi asosiy kalimalardan biri hisoblangan "Tavhid" kalimasi saqlanib qolingga. Revers qismida esa, "الله عاصي الهمم" (الله عاصي الهمم), ya'ni "Allohniki, Muhammad uning

elchisidir. Malik as-Sayid ... ibn Ma'mun" jumlesi saqlanib qolgan. Tangadagi "Al-Malik as-Sayid" (الملك العادل) unvoni Ali ibn Ma'munning Kat, Farova va boshqa hududlarda zarb qilingan tangalarda tilga olingan. "Malik" bu XI-XII asrlarda kichikroq hududlarni "sulton"ning vassal sifatida boshqargan zodagondir [12, 43]. "Sayid" unvoni esa, "zodagon", "xo'jayin", "boshliq" ma'nolarini anglatib, islomda sharaflı unvon hisoblangan. Bu unvon odatda Muhammadning (s.a.v) amakisi Abbas va Abu Tolib, shuningdek uning o'g'li Alining avlodlariga berilgan. Hijozda esa bu unvon faqat Muhammadning (s.a.v) nabirasi Husaynning avlodlariga oid bo'lgan [13].

Umuman Xorazmda 203-yilda (mil. 818) zarb qilingan Nuh ibn Asad Somoniylar tangasida birinchi marta Qur'ondan iqtiboslar keltirilganini ko'rish mumkin. Tangalarning old tomoni gardishida Qur'onning Saff surasi 9-oyati [14] va Tavba surasi 33-oyatida [15] keluvchi jumla yozilgan. Biroq ushbu jumlaning ma'nosini Qur'onda kelgan ma'nosidan farqlanadi. Uning mazmuni quyidagicha: "لوسر دمح وکلک نېدأىلىع فرەظلىل قىحلانى دوئى دەللى يېرىك" ya'ni, "Allohnining elchisi Muhammad uni hidoyat va haq din bilan, garchi mushriklar istamasa ham barcha dinlarga g'olib qilish uchun yuborgan zotdir". Bu yerda jumlaning birinchi qismi Qur'onda "لسرادىنلا وه موسى..." ya'ni "Uzot o'z rasulini yuborgan..." ma'nosida keladi. Tangada aynan shu qismi, "Allohnining elchisi Muhammad (s.a.v.) uni (ya'ni, tangani zarb qilgan hukmdorni) hidoyat va haq din bilan, barcha dinlarga g'olib qilish uchun yuborgan zot" ma'nosida kelgan. Bu iqtibos dinor tangalarda 77-yildan (mil. 696), dirham tangalarda 78-yildan (mil. 697) qo'llanilgan [16,45-46].

Shuni ta'kidlash kerakki, IX-XII asr oxirigacha Xorazm tangalarida Qur'on Karimda zikr qilinuvchi to'rtta oyatdan foydalanilgan. Ulardan uchtasi yuqorida ta'kidlaganidek Qur'onning Fath surasining 28, Saff surasining 9, Tavba surasining 33-oyatlarida kelgan jumladir. Boshqa bir iqtibos esa, Rum surasi 4-oyatidagi, "حربى ذئبوي و دعوب نه لباق نم رم آلل" (حربى ذئبوي و دعوب نه لباق نم رم آلل),



Ma'mun minorasining poydevori. XI asr. Ko'hna Urganch



Ma'mun ibn Ma'mun Abul Abbasning farmoni(qo'rg'oshin). XI asr Ko'hna-Urganch



Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun (999-1008) davrida zarb qilingan tanga

“нун мөмлә” ya’ni, “Undan oldin ham, keyin ham barcha ish Allodhan. O’sha kunda mo’minlar shodlanurlar” jumlesi ishlatilgan [17].

Xorazmda zarb qilingan tangalar orasida birinchi bo’lib, Rum surasi 4-oyati aks etgan tanga – bu Ahmad ibn Muhammadning 348-yilda (mil. 959) zarb qilgan kumush tangasidir [18]. Shuningdek, bu tanga “Xorazmshoh” unvoni arab grafikasi asosida aks ettirilgan va Qur’on oyatlari bilan zarb qilingan birinchi Xorazmshohlar sulolasi tangasidir.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tangalarni tadqiq etish vatanimiz tarixining o’rganilmagan sahifalarini oydinlashtirish, bir qancha savollarga javob topish imkonini beradi. Yuqorida aniqlangan ikkita tanga esa, yurtimiz tangashunosligida noyob topilmalardan bo’lib, bugungi kungacha sanoqli namunada yetib kelgan xolos.

#### Adabiyotlar:

1. Özbayraktar A. Me’mûnîler devrinde Harezm. Dok.tezi. Selçuk Üniversitesi. – Konya. 2021. – S 46.
2. Hunkan Ö. S. Türk Hakanlığı (Karahanlılar). – İstanbul, 2011. – S 184.
3. Ismailov Sh.Z. VIII-XIII asrlarda Xorazmshohlar tangalari. PhD dissertatsiyasi. – Urganch, 2024. – B 52.

4. Mzraoxh یف ئىن واملا ئلود. يىن ومىملا 408-385ھ. – مىزراوخ یف ئىن واملا ئلود. يىن ومىملا 231-4.224ص. – 2002، قەضىنەملا راد. قەھاقلما
5. Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor Utbiy. Tarixi Yaminiy // Qo’lyozma, O’zR FA SHI №3252/V. – B 353.
6. Duman A. Ebû İbrahim İsmail El-Muntasır’ın Sâmânî Devletini Diriltme Gayretleri Bağlamında Karahanlılar ve Gaznelilerle İlişkileri//Gaziantep Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. C. XI/2. – Gaziantep, 2012. – S 535-548.

7. Bosvort K. E. Musulmon sulolalari (yilnomalar va shajalarlar bo'yicha ma'lumotnomalar). Tar: Asror Samad. – T., Fan, 2007. – B. 14.

- دوقن یف مل اعلما، یمالسالا دوقن. روصنم فطاع ناضمر ص 8.182 – م. 1448ھ، قفالخى رشنىلى راد: قەھاقلما. – ئەعسۇم

:مەحھصو ھەججار. 10. ج. خىراتلى یف لەكىلا. رىيىتالا نبىا 1987. – ئېيمەل علما باتىكىلا راد: قورىپ. – قاقدىل افسوسى دەجم 9.39

يىلۇق ئىنارقىلا رىغت اباتكىلا. ناضمر روصنم فطاع 10. ج. سىلەنالا و برغىملا یف ئېيمالىسى دوقن 2002.-، قىرشىلما ئارمىزلا راد: قەھاقلما. – 112-126

11. Mohammed S.Tawfiq and etc. A historical and numismatic study of the dinars of the Ghaznavid Sultan Mahmud b. Sabuktegin at Nishapur // Espacio, tiempo y forma. No. 33. – Madrid. 2020. – P 634.

12. Бартольд В. В. Халиф и султан. Соч., т. VI. – М., 1966. – С. 43.

قىياشولى و خىراتلى یف ئېيمالىسا بىقلالا. اشابىلدا نسخ 37 ص. – 1989، ئىنفالا راد: قەھاقلما. – راڭالا و

14. <https://islam.global/verouchenie/koran/sura-61-as-saff-ryady/>

15. <https://islam.global/verouchenie/koran/sura-9-at-tauba-pokayanie-/>

تاكىپىسىملا يىلۇق ئىنارقىلا ئىيالا: فۇرسۇي مەللىا جىرف، ئېيمالىسا تاساردلار شۇچىللە لىصىيف لەكىلما زىگىم 16 45-46

17. <https://quronvasunnat.uz/quron?sura=30>

18. Qarang: Ahmad ibn Muhammadning 1-tipdagى tangasi.

19. <https://islom.uz/maqola/7995>

## Koshinkor Usto Abdullo

**Nodirjon Abdulahatov,**  
tarix fanlari doktori

Qo'qon shahri markazidagi turli ranglarda jilvalanib turgan O'rda ansambil Farg'ona vodiysidagi XIX asr me'moriy obidalari ichida eng ko'rkami, eng ulug'veri hisoblanadi. Bu binoda xalq me'morligi san'atining badiiy kulolchilik, naqqoshlik, yog'och va tosh o'ymakorligi turlari o'zining yorqin ifodasini topgan. O'ta ustalik bilan terilgan turli rang va shakldagi koshinlar uyg'unligi, nafisligi bilan Farg'onada, jumladan Rishtonda kulollik san'ati XIX asrda yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

Bu koshinlarning muallifi, XIX asrda yashab o'tgan rishtonlik kulol usta Abdullo bo'lib (1797-1872), u haqda A.Egamberdiyev o'zining "Koshinkor Abdullo merosi" nomli maqolasida shunday yozadi: "Usta Abdullo otasi asli qo'qonlik kulol bo'lgan. U keyinchalik Rishtonga ko'chib ketgan. Uning uch o'gli bo'lib, ularning kattasi Ubaydulla Qo'qonda savdogarlik qilgan, o'rtanchasi – usta Azim va kenjası usta Abdullo ota kasbini tutishgan. Usta Azim 17 yoshidayoq ajoyib kulol bo'lib yetishdi. U Qashqar viloyatida bir necha yil mobaynida yetuk kulollardan biriga shogird tushib

ishlaydi va chinni tayyorlash sirlarini o'rganadi. Vatanga qaytish oldidan u bir chet elliq savdogarga xitoy chinnisini ko'rsatib, bir yildan keyin bundan a'lo Rishton chinni kosasini Farg'onada yasayman deganida, savdogar ishonmaydi. Oradan bir yil o'tgach, o'z karvoni bilan Farg'onaga kelgan o'sha savdogar hayratda qoladi. Usta Azim uning oldiga dunyoning eng go'zal chinnilarini qo'ydi va shularning ichidan chet elni mashhur chinnilarini ajratib olishni taklif qildi. Savdogar uzoq o'ylangach, kosalarni chertib ko'ra boshladi. Kosalardan faqat biri nozik jarangladi. Axir, qolganlari oddiy Rishton loyidan yasalgan edi-da... Usta Abdullo ham yoshlidan elga o'z ishining pishiqligi, nafisligi bilan tanildi. Qo'qon xoni Xudoyorxon O'rda qurilishini boshlagan paytda ustanning nomi butun vodiyya mashhur edi... Xudoyorxon zudlik bilan usta Abdulloni ham Rishtonidan chaqirtiib keltiradi. Koshin tayyorlash va binoni bezash ishlarini usta Abdulloga topshiriladi. Keksa ustalar og'izdan-og'izga o'tib kelgan voqeani hali-hali eslashadi" [1, 24].

... O'rda hovlisiga koshin pishirish uchun katta-katta xumdonlar o'rnatilgan edi. Xumdonga tushib, uning ichiga koshinlar terilardi. Bu ish ancha nozik bo'lganligidan, uni faqat usta Abdullo bajarardi. Xon qurilishga kunora kelib, ishlarning qaysur'atda bajarilayotganini ko'zdan kechirardi. U kelgan paytda hamma o'z ishini tashlab, ta'zim bajo qilib turardi. Bu esa xumdon ichida ishlayotgan usta Abdulloga juda malol kelardi. Buni bilgan yordamchi kulollar bir necha marta xon kelyapti, deb hazillashib, uning shoshib-pishib, tirmashib, tirmailib, xumdonidan chiqishini ko'rib, qotib-qotib kulishardi. Yolg'onchining chin so'zi ham yolg'on tuyuladi deganlariday, kunlardan bir kun xon kelganda kulollar: "Usta, xon keldi" deb qayta-qayta aytishsa-da, u parvo qilmay o'z ishini qilavergan. Usta Abdulloning salomga chiqmaganligidan darg'azab bo'lgan xon xumdonni qopqog'ini berkitib, o't qo'yib yuborishni buyurgan. O't o'chgach, xumdonning og'zini ochishganida, olov taftidan qizarib ketgan, a'zoi-badanidan ter quyulib turgan Abdullo: "Assalomu alaykum, dodho", deb chiqib kelgan. Shunda xon: "Kabob bo'lisingga oz qolibdi-ku, kal", deb kulibdi. Usta Abdullo: "Dodho, biz kulollar olov taftida qovurilishga o'rganib qolganmiz", - deydi va xonning haddan tashqari go'shtdor ayonlariga qarab, davom etadi: mulozimlaringiz ham ahyon-ahyonda xumdon ichiga tushirib, olov

Xudoyorxon saroyi. XIX asr. Qo'qon





"Kitoba" uslubidagi bezakli panno. Xudoyorxon saroyi. Qoqon

taftiga tutib olinsa, g'aroyib tomoshani o'shanda ko'rар edingiz. Lekin, essiz, bular xumdonning og'ziga sig'ishmaydi-da" debdi.

– Yaxshiyam xumdonning og'zini tor qilib yasagan ekansan. Bo'lmasa, hamma mulozimlardan ayrılib qolarkanman, – debdi xon ham hazillashib.

Shundan so'ng usta Abdullo xonga keyingi kunda pishirilgan naqshli koshinlarini ko'rsatibdi. Quyosh nurida tovlanib turgan rango-rang koshinlarni ko'rgan xon iyib ketib: Xizmatlaring bizga manzur, kel, tila tilagingni" debdi.

– Taqsir. Rishtonda madrasa qurilishini juda ko'pdan niyat qilib kelaman. Haddim sig'ib, sizdan mehnatlarim evaziga shu madrasani qurish uchun mablag' so'ramoqchi edim... Ko'p o'tmay, uning tashabbusi bilan Rishtonda madrasa quriladi" [1, 24].


Usta Abdullo to'g'risida qo'qonlik ma'rifatparvar muallim, adabiyotshunos va o'lakashunos olim Po'lotjon domulla Qayyumovning (1885-1964) "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" nomli kitobida ham quyidagi ma'lumotlar bayon etilgan: "Rishtonlik Usta Abdullo. Bu kishi 1866-yilda bino qilgan arkni ziynatlashda sofolga sir ishlash hunarini buyuk mohir ustalaridan ekani amalda ko'rsatgan kishidur. Rishton bozorboshida loydan bino qilingan bir madrasasi bor edi. Rishtonda tug'ulib o'sgan va shunda vafot etgan. Hozirda artelga korxona bo'lib turadur. Mana shu kishi to'g'risida domulla Abdullojon maxdum Bokiy tubandagicha hikoya qiladilar (12.VII. 1951-y). Men

yosh edim. Bu ustaning hovlisiga kirar edim. Doim katta doshqozonlarda tuproqqa moyil yumshoq tosh to'plami suvga uvitilgan holda 3-4 ta qozonda doim turar edi. Bir hafta muddat suvga solib qo'yilar, keyin tegirmonda tortilib mayda qilinar, gulbo'ta bilan qo'shub loy qilinar, mundin chiniy sofol yasalib pishirilur, bo'yog'iga cho'yan aralashtirilib yasalur deb aytdilar" [2, 70-b.].

Arkning butun sofollari shul tarzda yasab yuborib turilgan ekan. Shul vaqtida Xudoyorxon Rishtonga boradi. Ma'lum mo'tabar kishilardan olti kishi bor ekan. Bular har vaqt xonga dasturxon olib borar ekanlar. Bulardan biri shul usta Abdullo ekan. Ark uchun ish juda qizib borayotganidan usta Abdullo xumdon bilan band bo'lib, xonning oldiga dasturxon bilan chiqa olmagan ekan. Xon darg'azab bo'lib so'roqlagan. Ishxonasida ekani eshitilgan hamono xon otga minib buning uyi tomon borgan. To'g'ri, ot bilan hovliga, so'ngra ishxonaga bostirib kirgan. Ustani ishda ko'rgan. Ish bilan band bo'lgan bu kishi xonning kelganini payqamay qolgan. Boshini ko'targanda, oldida xonni ko'rgan, hayron sarosima bo'lib qolgan, ma'yus sarosima bilan bo'yin egib ta'zim bajo etgan. Xon hamoqat pesha mashhur ustani o'z xizmati ustida band ekanini ko'rgani holda g'azabi pasaymagan. Xumdonga qamab, xumdonga o't qo'yushga buyurgan. Chor-nochor shogirdlari xumdonga o't qo'yg'anlar. To'rt bog' yantog' yongandan keyin bir katta kishi Xudoyordan gunohini so'ragan.

– Axir bu bechora usta sizning saroyingiz uchun ziynat buyumlari tayyorlamoqdadur. Ish bilan band

## IV. JAMIYAT, TARIX, MADANIYAT



Bezakli pannoning fragmenti. Xudoyorxon saroyi. Qoqon

*holda bo'lsa, gunohkor bo'larmi – deb xumxonani yuqori mo'ri qopqog'ini ko'tarib yuborgan. Alanga yuqoriga urib, buyuk mohir usta tiriklay kuydirilishdan qutilib qolgan. To'rt kishi uni ko'tarib xumdonidan olib chiqqanlar. Ko'zi yumuq holda og'zini hap-hap ochib turganini ko'rib edim, yosh bolalik holimda dedilar. Yana yigirma minut turganida tamom bo'lar edi deydilar. Past bo'yli, kalga o'xshash sochi oz, chuviqroq kishi edi, deydilar" [2, 71-b.]*

Xudoyorxon o'rda qurilishi nihoyasiga yetgach, usta Abdullodan "Tila tilagini" deb so'ragan chog'da usta Abdullo har kulol o'z xumdonidan 2 tanga (qirq tiyin)dan unga to'lashlariga farmoyish berishini xondan so'ragan ekan. Xudoyorxon o'zining dorulsaltanida qancha xumdon borligini bilmagani uchun uning bu tilagini eshitib, kelib-kelib xondan nahotki shu arzimagan narsani so'rasang" deya usta Abdulloni ustidan kulib, rozilik bergen ekan. Usta Abdullo esa xumdonlardan olingan ikki tanga evaziga tez orada boyib ketib, o'sha mablag' evaziga masjid qurdirgan ekan.

Aytishlaricha, Xudoyorxon o'z O'rdasini qurib tugatgach, usta Abdulloni huzuriga chaqirtiradi. Xon

undan Bosh binoni Alloh taoloning xohish-irodasi ila bunyod etdi. Lekin u sultanatimizning timsoli sifatida yer yuzasida necha asr turishi mumkin?" – deb so'raydi. Usta Abdullo xonni indamasdan bino tomi ustiga yetaklaydi. Ular tomga chiqqach, usta qo'lidagi tariq to'la laganni mezana (masjidning azon aytiladigan joyi)ning eng ustki qismiga qo'yadi. Xon tikilib qarasa don asta-sekin to'kilyapti. Vaholanki, havo musaffo, qilt etgan shamol yo'q. Hech qancha vaqt o'tmasdan idish bo'shab qoldi. Xon buning sir-asrorini so'raganda, usta Ovchi qishlog'iga qarab ishora qiladi. Bu qishloqdagи objuvozlarning tovushi O'rdadan ham bemalol eshitilib turardi. Shunda xon latta-puttalarni tuyadigan to'qmoqlar zarbidan zamin bilinar-bilinmas titrayotganligini his qildi.

– Agar qog'ozgarlarning objuvozlari shahardan uch- to'rt chaqirim ko'chirilsa, bu binolar umri ming yilga yetishi mumkin, deydi usta. Xudoyorxon uchun arkoni davlatning, sultanatning ramzi hisoblangan O'rdani saqlab qolish har narsadan ustivor edi. Uning farmoniga muvofiq qo'qonlik qog'ozgarlar So'x vodiysidagi Qal'acha qishlog'iga ko'chirib yuboriladi [3, 68-b.].

Hozirda yuksak me'morchilik san'ati namunasi sifatida e'tirof etib kelinayotgan Xudoyorxon o'rdasi ajdodlarimizning yaratuvchilik salohiyatidan dalolat beradi. Bunda albatta koshinkor usta Abdullo singari o'z hunarining piri komillarini xizmati beqiyosdir. Binobarin mana shunday mohir ustalarining yillar davomida chekkan zahmatlari tufayli yurtimizda me'morchilikning nodir namunalari shu kunga qadar xorijlik sayyoohlarni hayratga solib kelmoqda.

### Adabiyotlar:

1. Egamberdiyev A. Koshinkor Abdulla merosi // Sovet O'zbekistoni san'ati. 1982. № 10. – B.24.
2. Qayumov P. Ho'qand tarixi va uning adabiyoti. – B.70-71.
3. Abdulahatov N., Hoshimov B. Mo'yi Muborak. – Farg'ona: "Farg'ona", 2000. – B.68.



Xudoyorxon saroyining tashqi ko'rinishi. Qoqon



# Chig'atoy qabristonidagi XIX asrga oid epigrafik yodgorlik

**Nurida Nasibullina,**  
filologiya fanlari nomzodi (Qozon sh.),  
**Aygul Axmetova,**  
Islom madaniyati muzeysi xodimi (Qozon sh.),  
**Dilmurod Bobojonov,**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, Xiva sh.)

2024-yilda Toshkent shahridagi Chig'atoy musulmonlar qabristoniga tashrif buyurganida genealogiya bo'yicha ma'lumot qidirishda geologiya-mineralogiya fanlari doktori A.N.Bogdanov va uning singlisi U.M.Xalilova tomonidan XIX asrga oid to'rtta qabrtosh parchalari qayd etilgan.

Qabrtoshlaridagi matnlarning yuqori manbashunoslik salohiyatini hisobga olgan holda, yaratilish vaqtini va saqlanish darajasidan qat'i nazar, kelajak avlodlar uchun mumkin bo'lgan eng katta faktik materialni ishlab chiqish maqsadida to'plangan ma'lumotlarni nashrga tayyorlashga qaror qilindi. Qabrtoshlarni o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarning yetarlicha katta qatlami bir vaqtning o'zida to'rtta tadqiqot obyektlarini o'rganish natijalarini nashr etishga imkon bermadi. Shu sababli, maqolada bitta yodgorlikning tavsifi keltirilgan.

Obyektni tahlil qilish uchun bir nechta tadqiqot usullari ishlataligan, ya'ni kameral ishlov berish, paleografik tahlil, keyinchalik yozuvning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, grafik markerlarni dekodlash, matn qismining mazmunini batafsil tahlil qilish uchun epistemologik asoslanganlarni yig'ish va boshqalar.

Shunday qilib, eng to'liq saqlanib qolgan yodgorlik vertikal ravishda o'rnatilgan uzun to'rburchak shakliga ega bo'lib, yuqori qismi yarim doira shaklida. Xattot nomi yozilmagan. Balandligi 136 sm, kengligi 51 sm, qalinligi 17 sm. Epitafiya Muhammad Shokir hoji o'g'li Nurmuhammadga bag'ishlangan.

Qabrtosh XIX-XX asr epigrafiya san'atining barcha an'analariga muvofiq bajarilgan. O'rta Osiyo va O'rta



Chig'atoy qabristoni darvozasi. Toshkent

Volga hududlarida keng tarqagan. Bu, shuningdek, ustanning xattotlik motivlari va ijro etish texnikasining xuddi shu davrdagi taniqli tatar tosh o'ymakorlari – Gabdelbari Barudi, Nuri Burtasi, muazzin Fatxeddin, Fatxelkadir Kalmetov al-Qozon [6] va boshqa ko'plab noma'lum mualliflarning asarlari bilan o'xshashligi bilan izohlanadi.

## Old tomonning mazmunini ekzegetik tahlil qilish.

Epitafiya Islomda eng ko'p keltirilgan iboralardan birining basmala yoki tasmiya<sup>1</sup> atamaning kengaytirilgan formulasi bilan boshlanadi. Qodir Tangrining rahm-shafqati haqidagi ibora uning ortidan o'limning muqarrarligi haqidagi oyat bilan almashtiriladi (Qur'on, 29 "Al-Ankabut" surasi, 57-oyat). Epitafiyaning vizual-paleografik tahlili shuni ko'ssatadiki, mualliflar ko'pincha oyatning faqat boshlang'ich qismidan foydalanadilar, o'quvchining e'tiborini hamma narsaning vaqtinchaliliga qaratadilar. Taqdim etilgan versiyada o'ymakor kotirovkadan to'liq foydalanadi, aslida butun ma'noni

<sup>1</sup> Namoz formulasi nafaqat barcha diniy-didaktik, arab-fors, turkiy klassik she'riy va nasriy asarlarning amaliy atributidir. "Ma'nolar dunyosi bir necha so'z bilan: Mahmud Shabistariyning davr kontekstidagi falsafiy qarashlari" monografiyasini muallifi A. A. Lukashev ta'kidlaganidek, adabiy asarlarni Basmalaning batafsil formulasi bilan boshlash an'anasining asoschilarini forslar [3]. Ko'pgina dinshunos olimlarning fikrlariga ko'ra, formula "Al-Fotiha" surasining birinchi oyati emas, balki faqat Muqaddas Qur'on boblari o'rtasida bo'linish funksiyasini bajaradi. Formula to'liq bo'lib, ibora Sheba (Balkis) malikasi Sulaymonning maktub hikoya oyatning 27-sura "An-Naml", 30, bir parcha sifatida Qur'onda zikr qilingan. Ushbu formuladan hayotning barcha holatlarida foydalanish zarurati Muhammad (s.a.v) payg'ambarning hadislari bilan ham tasdiqlanadi, bu esa Islom dinini qabul qilgan xalqlarning epigrafik an'analarida aks ettilrilmasligi mumkin emas edi. نم قرفح و أقجل اض اير نم قصور ربقل ا رفح نارينل



Nurmuhammad o'g'li Muhammad Shokir Hoji qabrtoshi.  
Bogdanov A. N. va Xalilova U. M. fotosuratlari. 2024

umumlashtiradi. Xattot Allohnning cheksiz rahm-shafqati mavzusini davom ettiradi, unga ko'ra hamma tiriladi va hammadan so'raladi, bu Yaratuvchining barcha tirik mavjudotlarga nisbatanadolatli munosabatini ko'rsatadi.

Shu qismda, "تومل اقیاد سفن لک" oyatining dastlabki qismidan so'ng, "مکحلا مل" iborasiga o'xshash yozuv mavjud. Muallif, bir qator sabablarga ko'ra, oyatning ikkinchi qismini keyingi qatorga tushiradi, shu bilan birga hoshiya bilan ta'kidlaydi. Bundan tashqari, marhum haqida ma'lumot olish uchun bir nechta satrlar ajratilgan, ular uchun plastinka markazidagi keyingi uchta segment ishlatilgan. Birinchisida dafn etilgan kishining ismi o'yilgan (arabcha مسما) patronim haqida eslatib o'tilgan (arabcha بسمن) ibn prefiksi orqali birlashtirilgan. Ikkinchi kartushda o'lim sodir bo'lgan paytdagi yoshi va marhum tegishli bo'lgan joyning nomi qayd etilgan. Ma'lum bo'lishicha, "Kallaxona" mahallasidan kelgan ziyoratchi (hoji) dafn etilgan. Obyekt nomi ko'pincha Toshkent shahrining tarixiy ma'lumotlarida ham eslatib o'tiladi. Masalan, geograf olim, O'rta Osiyo davlat universiteti professori N. G. Malitskiy materiallariga ko'ra, yuqorida aytilib o'tilgan joy Toshkentning eski shahridagi Ko'kcha qismidagi 56 ta boshqa mahallalar orasida ro'yxatga olingan. Hozirgi Olmazor tumanidagi Qiziltut yo'lidagi masjid ham shu toponim bilan belgilangan. "Kallaxona" mahallasiga Oqcho'llik-ko'ktounlik ota qabristoni tegishli bo'lgan.

O'lim sanasi hind-arab sanoq tizimidan foydalangan holda milodiy xronologiya bo'yicha

o'yib yozilgan. Yon tomonlardagi vertikal hoshiyalar va oxirgi pastki segmentni marhum uchun iltijolar egallaydi. Taqdim etilgan qodir Allohga murojaat qilingan duo, aslida, "O'rgimchak" (توبك عن عل) surasining 57 - oyatiga semantik qo'shimcha va Muhammad (s.a.v) payg'ambarning eng yaqin sheriklaridan biri - Abu Said (Abu Said Al-Xudri Saad ibn Malik ibn Sinan, Xazraj Ansor qabilasidan va Xudra naslidan kelib chiqqan) hadisni qayta ishlashdir (612-693) unda aytishicha, "qabr Jannat bog'laridan bog' yoki do'zax chuqurlaridan chuqurdir".

Grafik belgilarning kompozitsion tuzilishi va tashkil etilishi qabrtosh arab yozuvida, o'rnatilgan ijro texnikasida, nasxga nisbatan ustun bo'lgan individual qo'l yozuvi bilan, ba'zi hollarda, asosan nastaliq uchun xos bo'lgan usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Fatha va hamza bilan ajratish shadda shaklida diakritikal belgilari (عُطْقَلٌ ظُرْمٌ) old tomonida timpan qismida, "مِنْ حَسَنٍ" kirish qismida diniy ifodalar ko'rsatilgan. Epitafiya asosiy ma'lumot manbai bo'lganligi bilan birga, taqdim etilgan holatda xattotlik tarkibi ham asosiy bezak elementi bo'lib xizmat qiladi. O'ymakor qo'shimcha geometrik yoki gulli o'simlik naqshlaridan foydalananmaydi.

**Yozuvning o'ziga xos xususiyatlari.** Oxirgi ta-marbuta "فَقَنْ" so'zida usta qo'lida 'jam (عجم) belgilari bilan egri ilgak shaklini oldi. "نَوْجَرْت" so'zidagi ta boshlang'ich yumshoq tovush oldingi so'zning oxirgi bo'g'inidan yuqoriga ko'tariladi, shuning uchun muallif "منْيَا" so'zidagi *nuqat* medial *nun* belgisini qisqartiradi. Ifodaning xuddi shu qismida mavjud bo'sh joyni yanada ixcham ishlatish uchun *kerning* texnikasi qo'llaniladi, bu nasxga qaraganda nastaliq uchun ko'proq xosdir. "كَنْ يَسْ مَلْحَمْ" so'zidagi velyar undosh *ng* ikki *nun* va oxirgi *qof* birikmasi bilan ifodalanadi.

**Tasmiyada o'rta sin** "سَمِّب" va shu harfning oxirgi shaklini "سَفَنْ" so'zida va boshqa ba'zi so'zlarni yozishda *kashida* atamasi bilan ma'lum bo'lgan qo'shimcha uzayish usuli qo'llaniladi: harf biroz egrি horizontal yoy shaklida kesilgan, qalinligi o'ngdan chapga biroz oshgan. "هَنْشَاءِ" so'zidagi deyarli bir xil *shin* harfi allaqachon aniq gorizontal chiziq shaklida qilingan, ammo yuqoridan pastgacha salgina egilgan. "كَحْلَا" so'zidagi yakuniy *mim* aniq burchaklilikka ega emas. Cheklangan *qof* deyarli barcha holatlarda uni xarakterli bilan ishlatish *sarkesh* nisbiy diagonal ostida cho'zilgan.

Belgilar kengligining mutanosib nisbati farq qiladi. Uzaygan harflar vizual ravishda o'ngdan chapga kengayadi. Boshlang'ich *he* (*hoye havvaz*) ikki ko'zli shaklga ega, aksariyat hollarda *mim* harfi nuqtagacha soddallashtirilgan. Oxirgi yayning quyruq qismi "ىِاح" so'zida o'ng tomonga o'ralgan holda, kartushning kesilgan chiziq'i bilan birlashadi.

Yodgorlik yaxshi saqlanib qolgan, ko'rindigan bo'linishlarsiz va matnga zarar yetkazilmagan. Moh shaklida biodestruksiyaning kichik izlari mavjud, xolos.

## O'zbek tiliga tarjima

1. Rahmdil va mehribon Alloh nomi bilan
2. Biz tuproqdan yaralgammiz va Unga qaytamiz
3. Allohnинг irodasi bilan qayta tirlamiz.
4. Bu qaborda Nurmuhammad o'g'li Muhammad
5. Shokir Hoji dafn etilgan
6. 39 yoshida
7. Kallaxona mahallasidan
8. milodiy 1897-yilda
9. 17- iyulda. Alloh
10. o'z rahmatiga olsin. Amin.
11. Ey Alloh, uning qabrini jannah bog'i gullariga to'ldirgin
12. va jahannam olovidan saqlagin

## Arab grafikasidagi matn

1. میحرلار نمحرلار مللما مس ب.
2. مکحلا مل توملا فقیاذ سفن لک.
3. رباق اذه نوع جرت منیلا هث.
4. دمحم نبا دمحم رون.
5. تافسو یجاج رکاش.
6. ددن شای ۳۹ یدلوب.
7. کنن یس ملحام مناح ملک.
8. ۱۸۹۷ و ھنس ھی حسم و.
9. ادح مدلویی ای چن ۱۷.
10. نیم انوس لیق تتمحر.
11. قضور ربقل اذه لعچا مطللا.
12. نانجلار ضایر نارینلار ۋەرپىج نەرپىج ملۇچتالو.

## Yodgorlik matni

**Yodgorlik matni (1-jadval)**

Shunday qilib, maqolada tahlil qilingan epitafik yodgorlik, boshqa yozma manbalar bilan bir qatorda, xattot tomonidan bajarilgan ishning bajarilish vaqtiga va professionallik darajasidan qat'i nazar, bir qator tarixiy fanlar uchun qimmatli ma'lumot manbai hisoblanadi. Matn qismini o'rganishda qo'llaniladigan tadqiqot usullari muayyan aholi punktlari, diniy jamoalar va boshqalarning shakllanishi tarixiga oid dolzarb faktlarni aniqlashga imkon beradi. Epitafiya mahalliy aholining onomastikasi va genealogiyasi bo'yicha to'liq ma'lumotlarni taqdim etadi. Yozuvning lingvistik xususiyatlari, uslubi, xronotipi, o'ziga xos xattotlik belgilari filologlarning ma'lumotlar bazasini to'ldiradi va natijada dialektologlar, ilohiyotshunoslar, kodikologlar lingvistik – madaniy xarakterdagi muhim ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.

**Adabiyotlar:**

1. Ализаде А. А. Абу Саид ал-Худри // Исламский энциклопедический словарь. – М.: Ансар, 2007. – ISBN 978-5-98443-025-8. (CC BY-SA 3.0)
2. Крачковский И. Ю. Перевод Корана [Электронный ресурс]. URL: <https://falaq.ru/quran/krac/> (murojaat sanasi: 10.04.2024).
3. Лукашев А. А. Мир смысла в немногих словах: филосовские взгляды Махмуда Шабистари в контексте эпохи / А. А. Лукашев; отв. ред. А. В. Смирнов. М.: ООО «Садра», 2020. – С. 5-8.
4. История махалли Кукчи. [Электронный ресурс]. URL: <https://alsamarkand.com/istoriya-makhalli-kukcha/> (murojaat sanasi:: 07.06. 2024).
5. Малицкий Н.Г. Тошкент махалла ва

мавзелари // Русчадан У. Кўчор тарж. / – Т.: Г. Гулом номидагы Адабиёт ва санъат нашр., 1996. – Б. 15-17.

6. Усманов В.М., Ахметова А.И. Катибы (мастера по изготовлению эпиграфических памятников). – Казан, 2024. – С. 55-56, 246, 248, 269-271, 273.

7. Пятнадцать лучших молитв за умерших в Рамадан. [Электронный ресурс]. URL: <https://m7et.net/a-prayer-for-the-dead-in-ramadan/> (дата обращения: 03.06.2024)

8. Rad, Hussttin Ansari, Gholami Rahim. Abu Said al-Khudri // Encyclopedia Islamica / Editors-in-Chief: Wilferd Madelung, Farhad Daftary. – Brill Online.

# Arabshohiyalar sulolasi davriga oid vaqfnomalar nusxasi

**Qahramon Yoqubov,**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Vaqf instituti boshqa musulmon o'lkalarida bo'lgani kabi Xiva xonligidagi diniy va ijtimoiy muassasalar, ta'lif tizimi hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlari faoliyatini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda asosiy rol o'ynagan. Xiva xonligining Arabshohiyalar sulolasi (1511-1770) hukmronligi davriga oid tarixiy hujjatlar, xususan, vaqfnomalar juda kam saqlangan. Ular orasida original hujjatdan nusxa sifatida taxminan hijriy 1070/ milodiy 1659-1670-yillarda ko'chirilgan vaqfnomalar<sup>1</sup> mavjud bo'lib, u Shayx Sulaymon Haddodiy xonaqohi tarixiy faoliyatini aks ettiradi. E'tiborli jihat, original hujjat hijriy 750/ milodiy 1349-yilda rasmiylashtirilgan bo'lib, u mo'g'ullar davrida mintaqada amalda bo'lgan hujjatshunoslik madaniyati va vaqf institutining o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot beradi.


Shayx Sulaymon Haddodiy xonaqohiga tegishli mazkur vaqfnomalar bugungi kunda Xiva davlat "Ichandal'a" tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasining tarixiy hujjatlar jamg'armasida saqlanadi. Shayx Sulaymon Haddodiy majmuasiga oid boshqa bir vaqfnomalar hijriy 721/milodiy 1321-1322-yillarda tuzilgan bo'lib, uning matni xatt-i devoniyya bitilgan. Hozirgacha xatt-i devoniyya bitilgan Markaziy Osiyo vaqfnomalar juda ozchilikni tashkil etadi va Temuriylar davriga oid, ushbu xat turida bitilgan original vaqfnomalar yagona tadqiqotda tahlil etilgan<sup>2</sup>.

Shayx Sulaymon Haddodiy xonaqohi vaqfnomasi o'ram holida bo'lib, u nasta'liq xatida bitilgan. Vaqfnomalar qog'ozining o'Ichami 200x24,5 sm ni tashkil etadi. Vaqfnomalar matni aks etgan qog'ozning yuqori qismida mehrobsimon shakldagi ravoqli surat ishlangan bo'lib, mehrobning ichki va tashqari qismi

hamda vaqfnomalar matnining ikki tomon hoshiya qismi qizil va qora rangdagi turli gulsimon shakllar bilan bezatilgan. Shuningdek, mehrobsimon shakl ichiga "Bismillah" so'zi yozilgan. Mehrobsimon shaklning yuqori qismida esa bodomsimon muhr bosilgan bo'lib, uning ichidagi yozuvni to'liq o'qishning imkon mavjud emas. Muhr ichidagi aniqlangan ayrim so'zlar asosida u Xiva xoni Abulg'ozixon(hukm. 1644-1663) ga tegishli ekanligini taxmin qilish mumkin.

Vaqfnomalar matnining ichki tuzilishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u Allohgaga hamd bilan boshlangan. Keyingi o'rinda esa payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) salovatlar bilan zikr etilgan. Shundan so'ng, voqif shaxsiga aniqlik kiritilgan bo'lib, matnda u - "Amir Qutluq Timur" sifatida qayd qilingan.

Vaqfnomada vaqf qiluvchi sifatida zikr etilgan shaxs turli metaforalar bilan ulug'langani holda quyidagi ta'riflar bilan tavsiflanadi: "buyuk amir, saxovatli voliy, dunyo olimlari faxri, turk, arab va ajam jamoalarida mashhur, Xorazm shaharlari volysi va uning hokimi ... Qutluq Timur". Darhaqiqat, mahalliy zamonaliv tarixshunoslikda ko'pincha "Qutlug' Temur" nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu shaxs XIV asr boshlarida Xorazmga noib etib tayinlangan.



Anjelion Dalorto chizgan xaritadagi (1339-y.) O'zbekxon tasviri

Afsuski, tarixiy manbalarda Qutlug' Temur shaxsi, uning siyosiy faoliyatini haqida juda kam ma'lumotlar saqlangan. Masalan, Fazlulloh Rashididdinining "Jomi' al-tavorix" asarida uning Ilxoniyalar davlati bilan aloqalari haqida qayd mavjud. Unga ko'ra, Ilxoniyalar hukmdori Gayxatu (hukm. 1291-1295) bilan

<sup>1</sup> Xiva davlat "Ichandal'a" tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi, GXMZ KP 1326.



Xorazm noibi Qutlug' Temur o'rta sidagi munosabat qarindoshchilik aloqalari orqali bog'langan bo'lib, Xorazm noibining qizi Eltuzmish Xotun Gayxatuga uzatilgan<sup>3</sup>. Bundan tashqari, muallifi nomi'lum "Tarix-i-Shayx-Uvays" asarida Oltin O'rda xoni O'zbekxon (hukm. 1313-1341) bilan Qutlug' Temurning o'zaro ilk ittifoqchilik aloqalari haqida qayd uchraydi. Jumladan, ular 703/1303-1304-yillarda Oltin O'rda saroyida endigina taxtga chiqqan Iksarni qatl etishda ishtirok etadilar. Shu voqeadan keyin xonlik taxtini O'zbekxon egallaydi. Shu xizmati uchun bo'lsa kerak, Qutlug' Temurning Xorazm noibi sifatida mavqeい yanada oshadi va hatto u O'zbekxonning qiziga uylanadi.

Vaqf hujjatida Qutlug' Temurning madaniyat homisi sifatidagi faoliyati ham alohida urg'ulanadi. Xususan, u "jome'lар, madrasalar va xonaqohlar quruvchisi" sifatida zikr etiladi. Darhaqiqat, Qutlug' Temur 1320-1330-yillarda Ko'hna Urganchda Markaziy Osiyodagi eng baland minorani bunyod etadi. Minorani nomi Qutlug' Temur sharafiga qo'yilgan bo'lib, uning uzunligi 60-62 metrni tashkil etadi. Minoraning yuza qismiga O'zbekxon va Qutlug' Temur ismlari bitilgan. Bizning tadqiqotimiz asosi bo'lgan vaqfnomada esa u Shayx Sulaymon Haddodiylar sharafiga qurilgan 2 ta xonaqoh binokori sifatida ham zikr etilgan.

O'sha davr qo'lyozma asarlarida Qutlug' Temur ismi va u mansub bo'lgan urug' nomi, ya'ni "Qo'ng'irot" haqida qaydlar uchraydi, xolos. Mazkur vaqfnomaning eng muhim jihatni esa, u o'zida Qutlug'

<sup>2</sup> Фазуллаҳ Рашид-ад дин. Джами-ат-таварих. – Баку, «Нагыл Еви», 2011. – С. 198.

Qutlug' Temur minorasi. XIV asr. Ko'hna Urganch

Temurning ajdodi, xususan, ota va bobosi haqidagi ma'lumotning jamlaganidir. Jumladan, hujjat matnida uning to'liq ismi "Qutluq Timur bin Najmuddin bin Tuydi Oqo" tarzida kelgan.

Vaqfnomada shayx Sulaymon al-Haddodiylar atab qurilgan xonaqohlar va ularning qisqacha tarixi ham bayon etilgan. Dastlab, ushbu vaqf ta'sis etilishidan oldin Mizzaxxon (hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumani) etagida Oq Xonaqoh mazkur shayx sharafiga bunyod etilgani qayd qilingan. Keyin esa, ta'sis etilgan mulkler turi, ular joylashgan hudud va vaqf daromadi haqida to'xtalib o'tilgan. Qutlug' Temur o'zining egaligida bo'lgan, Mizzaxxon va Bag'dod orasida joylashgan yerlarni ularga tegishli ariq – suv manbalarini bilan vaqf etgan<sup>4</sup>. Ushbu ariq Tug'rul Tekin daryosi sifatida xalq orasida mashhur bo'lib, vaqf qilingan yerlar uning ikki tomonida joylashgan hamda ular boshqa uchta ariq bilan ajratilgan. Keyingi o'rinda esa, ushbu ariqlar egalari shaxsiga aniqlik kiritigan. Ular orasida o'sha davrning ta'sirchan siyosiy kuchga ega shaxslari qatorida Qutlug' Temurning ayoli To'rabeckxonim arig'i ham alohida zikr etilgan.

Mizzaxqonga hududiga kiruvchi va unga yaqin yerlar ziroat uchun maqbul bo'lib, undan 8000 manн<sup>5</sup> (Xorazmdagi og'irlilik o'lchovi birligi hisobida)

<sup>4</sup> Фуломов. Я. Ф. Хоразмнинг сугорилиш тарихи. – Т, «Фан», 1959. – Б. 177-178.

<sup>5</sup> Mann (botmon) – Xiva xonligida amal qilgan og'irlilik o'lchovi bo'lib, u XVII asr rus manbalarida taxminan 4 kg atrofida bo'lgan. Qarang: Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. – М., 1970. – С. 85-86.

#### IV. JAMIYAT, TARIX, MADANIYAT



Qutlug' Temur minorasi. XIV asr. Ko'hna Urganch

bug'doy hosili olish mumkin bo'lgan. O'z navbatida, Bag'dod(hududi)ga kiruvchi va unga yaqin yerlar ham dehqonchilik uchun yaroqli bo'lib, undan esa 15000 mann hosil olingan. Biroq, ushbu miqdor jami hosil yoki vaqf ijara haqini tashkil etishi borasida aniq ma'lumot keltirilmagan. Shunday bo'lsa-da, vaqfnoma so'nggi qismida aks etgan da'vo masalasi tahlilidan, uning ushr miqdoriga ishora qilganini, ya'ni jami hosilning 10%ini tashkil etganini fahmlash mumkin.

Shayx Sulaymon Haddodiy xonaqohi vaqfnomasining tahlili Qutlug' Temurning ikkinchi marotaba vaqf mulki ta'sis etgani va shayx Sulaymon al-Haddodiy uchun yangi katta xonaqoh qurdirganini ko'rsatadi. Ushbu katta xonaqoh Hururiy/Harvariy nomi bilan mashhur bo'lib, u Nosiri daryosi janubiy qismi yaqinida joylashgan. O'z navbatida, Hururiy/Harvariy Xivaq shahrining qishloqlaridan biri bo'lgani ta'kidlanadi. Qutlug' Temur mazkur ikkinchi xonaqoh uchun u joylashgan hudud atrofidagi yerkarni vaqf mulki tarzida ta'sis etgan. Yuqoridagi mulklar qaydi kabi, vaqfga aylantirilgan yerning to'rt tomonidan chegarasi ham bayon qilingan. E'tiborli jihatni, katta xonaqoh uchun vaqf qilingan yerning chegaralarini keltirish asnosida Shayx Qabul Ota maqbarasi, Nuriy Xos namozgohi, hammom, Bobo Mangu deb

ataluvchi buyuk sahobiy maqbarasi yaqinidagi Nizom mahallasi, Haykonik daryosi, Daroz cho'li kabi nafaqat o'sha davr diniy-ijtimoiy muassasalar, balki mahalla, daryo va cho'l kabilarning toponomik nomlari ham zikr etilganligidir. Ushbu toponomik nomlarning aksariyati katta ehtimol bilan xonaqohlar barpo etilgan, ya'ni XIV asr va undan oldinroq ham mavjud bo'lgan, deb taxmin qilish mukin. Bundan tashqari, shaxs ismlari orasida Davlatshoh Sufrador Dalolga tegishli mulk ham zikr etilgan bo'lib, u Shayx Sulaymon Haddodiyning eng yaqin xodimi, ya'ni shogirdlaridan biri ekanligi ta'kidlangan.

Odatda, vaqfnomada vaqf mulklari boshqaruvi uchun mas'ul shaxs – mutavalli lavozimiga ham aniqlik kiritilgan. Shuningdek, vaqf mulklaridan foydalanish tartibi, ulardan olinadigan daromad va uning taqsimoti kabi masalalar ham vaqf hujjatida aks etgan. Qutlug' Temur ushbu ikki xonaqoh – Oq xonaqoh va Katta xonaqoh foydasiga vaqf qilgan mulklari mutavalliligiga Shayx Sulaymon Haddodiy avlodni orasida eng solih bo'lgan shaxsni tayinlagan. Vaqfnoma matnida kelgan shartlar tahlilidan ikki xonaqoh yagona vaqf xo'jalik boshqaruviga ega bo'lgani kelib chiqadi. Keyingi o'rinda vaqf daromadlari taqsimoti masalasiga aniqlik kiritilgan. Mutavallilik haqi olingenidan keyin vaqf mulkidan kelgan daromadning yarmi Shayx Sulaymon Haddodiy avlodlari orasida taqsimlanishi ko'zda tutilgan. Shunday keyin esa, vaqf daromadining qolgan yarmi qanday maqsadlar uchun sarflanishi kerakligiga batafsil to'xtalib o'tilgan. Jumladan, ikki xonaqohning zaruriy ehtiyojlari va ularda istiqomat qiluvchi faqirlar va boshqa shaxslar ehtiyojiga sarflanishi belgilangan. Vaqf daromadlari taqsimotidan ushbu xonaqoh(lar) tarkibida masjidlar ham faoliyat yuritgani ma'lum bo'ldi. Majmua tarkibidagi masjidda 5 mahal jamaot namozini ado etish uchun mas'ul bo'lgan imom va muazzin yillik 100 tanga va 50 tangadan mablag' bilan mutanosib ravishda ta'minlangan. E'tiborli jihatni, mazkur tanga tavsifida uning Xorazmda zarb etilgan nuqra – kumush tanga ekanligiga alohida urg'u berilgan. Demak, bundan Oltin O'r daning ma'muriy-boshqaruv birliklaridan biri bo'lgan Xorazmda XIV



Xorazmshoh Takash maqbarasi. XII asr. Ko'hna Urganch



Abdulg'ozzi Bahodirxon – Xiva xoni (1643-1664-yillar)

asrda pul zarb etish amalda bo'lgani va ichki savdoda undan foydalanilgani kelib chiqadi.

Vaqf mulklari daromadi xonaqoh(lar)da xizmat qiladigan boshqa ishchi-xodimlar uchun ham yo'naltirilgan bo'lib, mazkur maqsad uchun jami 300 tanga ajratilgan. Shuningdek, xonaqoh(lar)da Juma va bayram kunlari o'tkaziladigan turli tadbirdilar ham vaqf daromadidan ta'minlangan. Ushbu ehtiyoj uchun har yili 5000 Xorazm kumush tangasini sarflash ko'zda tutilgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, mazkur tadbirdilar qatorida Ashuro kunini nishonlash ham alohida zikr etilgan. Hozirga qadar Arabshohiyalar va Qo'ng'irotlar sulolari davrida tuzilgan, xonaqohlar faoliyati bilan bog'liq vaqfnomalarda bunday shart uchramaydi. Ashuro kunini nishonlashning alohida zikr etilishi, xonaqohlarda nafaqat shia jamoalari vakillari faoliyati mavjud bo'lganiga, balki Shayx Sulaymon Haddodiying ushbu oqimga mansub bo'lgan bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi.

Vaqf daromadining xonaqoh(lar) mulozimi bo'lgan sohib-i sajjoda (xonaqoh piriga namozdan oldin joynomoz to'shovchi) va xonaqohda yashovchi ahli tariqat peshvosi bo'lgan pirga har yili 400 tanga berilishi lozimligi ham vaqfnomada belgilangan. Shuningdek, xonaqohda istiqomat qiluvchilarni doimiy oziq-ovqat bilan ta'minlash ham ko'zda tutilgan bo'lib, non va guruch hamda halim tayyorlash bilan bog'liq sarf-xarajatlar uchun yillik 27900 manн bug'doy vaqf daromadi yo'naltirilgan.

Shayx Sulaymon Haddodiyy vaqfnomasi matnining so'nggi qismida original nusxa tuzilgan sana, uni imzolagan qozi shaxsi va mazkur ko'chirma nusxaning ko'chirilish sababi ochiqlangan. Dastlab vaqfmaning original nusxasi va vaqflarning to'g'riliqi Qozi-yi islam Abu Hafs al-Makkiy al-Rahmoniy muhri bilan tasdiqlangani keltirilgan. Shuningdek, hujjat originalining yaratilgan sanasiga ham aniqlik kiritilgan bo'lib, u mazkur qozi tomonidan hijriy hisobda Ramazon oyining ikkinchisida 750 / milodiy 14 noyabr 1349-yilda rasmiylashtirilgan.

Shayx Sulaymon Haddodiyy xonaqohi original vaqfnomasining yangilanishiga sabab bo'lgan jihatga Arabshohiyalar sulolasi vakili Abulg'ozixon davrida ro'y bergan voqeani bayon etish orqali aniqlik

kiritilgan. Unga ko'ra: "bu yangi hujjatni yozishdan sabab 1070 sana to'ng'iz yilida bir kuni Abu-l-fath val-zafar Abulg'ozzi Bahodirxon mazolim (fuqarolik ishini ko'rvuchi) devonida o'tirgan edi, taxminan 18-19 yosh atrofidagi yigit kelib, ushr-i zamin da'vosini oq soqolli bir kishi ustidan qildi. U (qariya) kishi aytdiki, bu yerni otamdan meros qilib olganman va bobomni ham ko'rganman. Otam va ajdodim bu yerdan ushr bermaganlar va (men ham) bermaganman. Yigit qariyaning bu so'zini inkor qilgan holida, qo'lting'idan ikki tumorni chiqarib, dediki: sayyidlar avlodidanman va men go'daklik chog'imda otamdan ayrilganman, bu ikki tumordan biri nasabnomam va ikkinchisi esa Shayx Sulaymon Haddodiyy vaqfnomasi, dedi. A'lo hazrat ikkisini (hujjatlarni) ko'zdan kechirdi va men faqir – Mullo Tohir ibn Mullo Oshiq Xivaqiyga buyurdilar: bu ikki tumorni qog'ozga yangitdan (tarjima qilib) ko'chir, to bu sayyidning nasabi va yaxshi(ya'ni, Tug'luq Temur)ning yaxshiligi odamlar orasida noaniq bo'lmasin. Oliy amr(ga ko'ra) ishni boshlab yubordim va u(original nusxa)ning qog'ozlari yirtilgan hamda yozuvlari surkalgan edi. Uning mazmunini bekamiko'st ma'lum qilib yozdim".

Ushbu parcha nafaqat vaqfmaning yangilash bilan bog'liq tartib-qoidani aniqlash uchun muhim, balki Arabshohiyalar davrida aholining murojaatlarini hukmdor tomonidan hal qilish tartibi bo'yicha maxsus tizim – devon faoliyati yo'lga qo'yilganini aks ettirgani bilan ham ahamiyatlidir.

Kulosa o'rnila shuni qayd etish lozimki, Shayx Sulaymon Haddodiyy xonaqohiga tegishli vaqfnoma Markaziy Osiyo, xususan, Xorazmda mo'g'ullar hukmronligi davridagi iqtisodiy va madaniy jarayonlarning ayrim jihatlarini yoritish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu turdag'i hujjatning boshqa manbalar bilan qiyosiy tahlili tarixiy toponomika, muayyan tarixiy shaxslarning iqtisodiy va madaniy sohadagi faoliyati kabi masalalar bilan birga, hujjat yoritish madaniyatining evolyutsiyasiga ham oydinlik kiritadi. Bundan tashqari, Arabshohiyalar davrida amalda bo'lgan boshqaruv tizimining ayrim tomonlari va vaqf huquqining bu davrdagi amaliyoti haqida ham qimmatli ma'lumotlar taqdim etadi.

# Qalb tuyg'ulari musavviri. O'ktam Saidov

**Sobirjon Sobirov,**  
Xorazm Ma'mun akademiyasi kichik ilmiy xodimi

O'zbekiston zamonaviy tasviriy san'atining o'ziga xos ijodkorlaridan biri O'ktam Saidov chinakam rangtasvir ustasidir. O'ktam Saidov respublika ko'rgazmalarida namoyish etgan dastlabki asarlari bilanoq san'atshunoslar va mutaxassislar e'tiborini tortdi. Ha, rassom borliqni o'z dunyoqarashi, qalb ko'zi orqali ko'radi, anglaydi. U asariga qalbidagi kechinmalari, eng sohir tuyg'ulari, o'y-xayollarini jo etadi. Yaratilgan tasviriy asar namunasini ko'rgan har bir odam undan o'z dunyoqarashi, fikrlashidan kelib chiqib ma'no topadi va o'ziga xos uslubiy izlanishlari, shakl va rang ustida olib borgan samarali

tajribalarini, eng muhimmi, musavvирning yorqin va iliq ichki dunyosini his qiladi. O'ktam Saidov o'ziga xos ishilash uslubi, fikrini erkin ifodalay olish qobiliyati va yangilik yaratishga intilishini namoyon etuvchi rassom sifatida tanildi.

Mazkur maqolada rangtasvir kompozitsiyasining asosiy masalalaridan biri bo'lgan shakl va mazmun birligi xaqida fikr yuritmoqchimiz. Bu masalaning muhimligi shundagi, aynan shakl va mazmun yechimi orqali rassomlar asarlari bir-biridan farqlanadi. Qaysidir rassom o'z g'oyasini tabiatga yaqin, hayotiylikka e'tibor bergan holda ifodalasa, boshqa bir ijodkor g'oyani mavhum yoki ramziylik, turli nisbiy o'zgartirilgan shakllar orqali tasvirlaydi. O'zbekiston san'ati har doim yorqin ijodkorlarga boy bo'lgan. Hozirda o'zining shaxsiy badiiy dunyoqarashi va ijodiy pozitsiyalariga ega yangi avlod rassomlari bilan boyib bormoqda.

O'zbek zamonaviy rangtasvirida o'z yo'nalishiga va tiliga ega bo'lgan rassomlardan biri O'ktam Saidov 1980-yilda Xorazm viloyati Urganch shahrida hunarmandlar oilasida tavallud topdi. U bolaligidan tabiat va insonlarni xakterlari o'zgarishlarini xush ko'rар edi. Yosh rassom bolaligidanoq hayotning falsafaga boy jihatlarini murg'aq qalbi bilan kashf etib hayratlanar edi. Ijodiy qiziqishi o'zi yashab o'sgan Xorazm tabiatini va urf-odatlarini kuzatgan holda shakllanib bordi. Qiziqishlari bo'lajak rassomni 1997-yil Xorazm viloyati Urganch shahridagi 24-sonli san'at gimnaziyasiga yetaklab bordi. O'ktam ushbu dargohni a'lo baholarga yakunladi. 2002-yil Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining dastgohli rangtasvir yo'nalishi bakavliaturasini, 2004-yili magistratura bosqichini tamomladi. O'ktam buyuk o'zbek rangtasvirining namoyandalaridan Rahim Ahmedov, Mannon Saidov, Negmat Qo'ziboev, Muhammad Nuriddinov kabi bir qator mohir rassom pedagoglar rangtasvir sirlaridan saboq olgan. Bu albatta, yosh rassomning san'at ummonida o'z ijod yo'lini topishida taqdirning katta tuhfasi bo'ldi. Rassom ishlaridagi dekorativ sifatlarga katta e'tibor qaratadi.

O'Saidov bugungi kunda o'zbek zamonaviy rangtasvirchi rassomlaridan asosan Bobur Ismoilov, Akmal Nur, Fayzulla Ahmadaliyev ijodlaridan ilhom oladi. Ustozlarning ulkan xizmatlaridan biri shundaki, u oliygohning dastgohli rangtasvir yo'nalishini ijodiy muhit yaratib, talabalarni G'arbiy Yevropa va rus avangardi san'ati bilan tanishtirdi. Ularni nafaqat kasb mahoratini oshirishga, balki voqelikni o'ziga xos tarzda ifodalashga, dadil izlanishlar olib borishga va tajribalar o'tkazishga o'rgatdi. Shuning uchun ularning shogirdlaridan biri O'ktam Saidov ham ijod olamiga dadil kirib keldi.

Har qanday rassom ijodiy izlanishlarni boshidan kechiradi. Negaki, ijod hayoti bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi – bu nafaqat ijodiy eksprement, balki o'zgarayotgan voqelikka munosabat hamdir. Mavzularni tanlashda bo'lsa, taniqli allomalar va xalq maqollariga murojaat etib, asarlarining falsafiy ma'noga ega bo'lishiga harakat qiladi. Rassom





Maqol turkumidan "Kambag'alni tuyani ustida ham it qopadi". 2024



Ko'hna Urganch. 2024

tabiatan mulohazali inson bo'lganligi tufayli ijod namunalari orqali tomoshabinlar bilan falsafiy muloqot o'rnatishga intiladi. Rassom asardagi reallikni ko'p detallar bilan to'ldirib tashlamaydi, voqealikni nozik ishoralar tili bilan ifoda etadi. Buning uchun o'xshatishlar, badiiy syujetlar, rivoyatlaru she'riyatimiz obrazlariga murojaat etadi. Milliy tafakkur ifodasini tasviriy san'at kengliklariga olib chiqishda ana shunday ildizi baquvvat kartinalar yaratish yo'lini tanlaydi.

O'Saidovning o'ziga xos ijodiy yo'li san'atshunoslarni uning kartinalariga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini, ham milliy, ham dunyoviy masalalar bilan to'yingan asarlari ilmiy kashf qilinishi kerakligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ijodkor tahsil olgan dargohida pedagogik faoliyatini olib borib, yosh rassom va haykaltaroshlarga rangtasvir fanidan saboq berib kelmoqda.

O'Saidov o'zining "Buyuk ipak yo'li", "Oshiqlar", "Yaqin kelajak", "Hayot manzili", "Ko'hna Urganch" kabi ilk kompozitsiyalarida insonning kechinmalari, ichki hissiyoti aks ettirilgan. Inson tabiatining bu nozik qirralari shakl plastikasi, ba'zan esa rassomga xos uslub, ranglar mutanosibligi orqali namoyon bo'lgan va o'z iste'dodining yorqin tabiatini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.



An'ana. 2024

“Buyuk ipak yo‘li” asari kuchli falsafiy mushohadaga undaydi. Kartinada ishlatalgan ranglar koloriti, perespetiv ko‘rinish kartinada Buyuk ipak yo‘lidagi karvonlar o‘rnini poezdlar egallaganligi me’moriy obidalarimizni dunyoga tanilgani, ilk temir yo‘l kirib kelishi undan chiqayotgan tutunda tarixiy Xiva Ichan qal‘asining “Ota darvoza” ko‘rinishi tasvirlangan. Bu asarni yaratishda rassom tarixga murojat qilishi va o‘rganishi, Xiva xonligi Bosh vaziri Islom Xo‘janing orzusini ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Rassom o‘zining his-tuyg‘ularini ranglarning dekorativ kombinatsiyasi va kuchli energiyasi bilan ifoda eta oladi. Buni, ayniqsa, “Yaqin kelajak” kartinasida yaqqol kuzatish mumkin. Ekspressiv ranglar kartina jonlilagini oshiradi. Bu asar koloritda garmoniya hosil bo‘lishiga xizmat qilgan va yaxshilab nazar solinsa turli xil ranglarda hayot davomchisi bo‘lgan embrionlar tasvirlanilgan. Turli xil ranglardan foydalilanilgani turli xil insonlar, turli xil jonzotlar misolida tasvirlangan.

Musavvirning yana bir tarixiy janrda ijodlaridan biri “Ko‘hna Urganch” asaridir, bunda hozirgi kunda Turkmaniston Respublikasi hududida joylashgan, suvsizlikdan yorilib yotgan yer misolida tarixiy ko‘hna

shahar va o’sha davrda unda yashayotgan insonlar kundalik hayoti tasvirlangan. Asardagi ranglar osmondagи bulutlar Ko‘hna Urganch fojiasining taqdirini tasvirlab bersa, jigarrang – ona yer, zamin timsoli. Asardagi barcha timsollar bilan jigarrang uyg‘unligidan shuni tushunish mumkinki, ona Vatan, uning har bir qarich tuprog‘i aziz va muqaddas. Uning har qarich yerini yovuz kuchlardan asrash har bir insonning burchidir.

Keyingi falsafiy asarlaridan biri “Hayot manzili” kartinasida sahrodagi daraxt va daraxt soyasida stul tasvirlangan. Hayotda inson yo‘ldagi yo‘lovchi kabi yashashganligi bu hayot uyg‘unligidan yo‘lovchini vaqtinchalik manzil ekanligi ushbu daraxt orqali tasvirlangan. Rassomning bu kartinasida kuchli sariq, ko‘k va oq ranglar ustunligi bilan ajralib tursa, ba’zi ishlarda bahoriy nafis yashil va havo rangning yetakchilik qiladi. O‘ktam Saidovning turkum asarlarida rangshunoslik qonunlari va tamoyillarini qo’llab, ba’zi jihatlarda ularni kuchaytirib, ba’zida esa ranglar koloritini so‘ndirib kartina ifodaviyligini oshiradi. Shunday qilib, rassom atrofdagi ranglarni sofligicha ifodalab dunyoni uyg‘unligini aks ettiradi.



Maqol turkumidan "Pashshadan fil yasama". 2024

"Maqol" turkum asarlarida rassomning sharqona dekorativ talqinda ekspressionizm va minimalizm uslublarida kartinalarning ritm va falsafiy motivini maksimal darajada ifodalagan. Yorqin sariq rang yirik bo'yoq surtmalarida butun kartina yuzasini qoplagan. Kartina markazidagi yagona mix tasviri turkumni keyingi asarlarida kalish, isiriq, taqa bilan to'ldiriladi. Bu buyumlar sharq xalqlarining urf-odat va aqidalari to'g'risida so'zlab, insonni ming yillardan buyon boshqarayotgan ishonch tuyg'usi bilan bog'laydi. Rassom ushbu aqidalarni birgina mix misolida juda ham sodda tilda tanqidga oladi. Insoniyatni boshqarayotgan buyuk ishonch tuyg'usini ulug'laydi.

O'. Saidovning falsafiy mavzularda yaratgan asarlar doim mazmunan salmoqli bo'lsa-da, bayon etilayotgan tili judda sodda va yengil hisoblanadi. Bu rassomning iste'dodining yana bir qirrasidir. 2008-yildan bugungi kungacha rassom ijodida vaqt, hayot to'qnashuvlari, taqdirning dramatik ko'rinishlarini aks etdiruvchi falsafiy asarlarni kuzatamiz.

Rassomning rangtasvirda individual yozuv uslubi va o'ziga xos sharqona obrazlari mavjud. So'nggi yillarda rassomning ijodida o'zbek xalq amaliy bezak

san'atiga bag'ishlangan asarlar o'rin olganini kuzatish mumkin.

O'rta asr Sharq madaniyatidan so'zlovchi ko'hna obida bezak va naqshlari xalqimiz tamadduniga ishora sifatida ifodalangan. Tuproq pigmentli, yashil, oq, ko'k ranglar, xattotlik va naqsh namunalari asarda aslidek ishlangan.

Har bir rassom ijodiy yo'nalishini o'zi tanlaydi. Yuqorida sanab o'tilgan barcha ishlarda rassom tafakkurining quvvat maydonini his etish mumkin. O'ktam Saidovning kartinalarida falsafiy, diniy, maishiy mavzular ko'tarilsa-da barchasi o'ziga xos yechimiga ega. Rassom go'yoki o'zi yaratayotgan obrazlari bilan ko'hna dunyoning so'roqlariga javob qidirayotgandek. O'. Saidov yaratgan ko'plab asarlar rassomlik san'atiga kirib kelayotgan yoshlар uchun katta tajriba maktabi vazifasini o'tayotgani bilan ham e'tiborlidir.

## Folklor va zamonaviylik

**Sarvar Ro'zimboyev,**  
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Folklor – xalqning asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga o'tib kelgan ma'naviy va madaniy boyligi hisoblanadi. O'zbek xalqining boy madaniy merosi, xalq og'zaki ijodi – dostonlar, ertaklar, maqollar, matallar, xalq qo'shiqlari va marosimlar – yoshlar tarbiyasida muhim o'rinn tutadi.

Folklor shunday go'zal san'atki, unda muayyan bir xalqning tarixi, urf-odatlari, maqsadi, orzu va o'ylari juda nafis va xalqchil tarzda ifodalab beriladi. Qaysi bir xalqning folkloriga oshno bo'lsangiz, aynan o'sha xalqning ruhiyati, o'zigagina xos bo'lgan harakatlari sizni maftun etmay qo'ymaydi. Folklor – xalq boyligi. O'z boyligini asrab qola olgan xalq esa baxtlidir. O'zbek xalqining folklor san'ati juda boy. Folklor hayotimizga shu qadar singib ketganki, ular yordamida bugungi kun yoshlariga to'g'ri tarbiya bera olishimiz mumkin. Folklor asarları yoshlarda milliy o'zlikni anglash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ijodkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Folklor – xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlarining timsoli. O'zbek xalqining og'zaki ijodi – dostonlar, ertaklar va maqollar – yoshlar uchun milliy o'zlikni anglashda asosiy manba hisoblanadi. Bu asarlar orqali yoshlar o'z milliy madaniyatini chuqur anglaydi va undan faxrlanadi. Masalan, "Alpomish" dostoni o'zbek xalqining boy madaniy merosining yorqin namunasi bo'lib, unda xalqimizning qahramonlik an'analari, jasorat va vatanparvarlik qadriyatları aks etgan. Doston qahramoni Alpomishning jasoratlari, uning vatani va xalqiga bo'lgan sadoqati yoshlar uchun milliy o'zlikni anglashda, o'z madaniyatiga nisbatan chuqur hurmat va sadoqat tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Alpomishning qahramonligi va fidoyiligi yoshlarni mardlik va jasorat ruhida

tarbiyalaydi. Shuningdek, "Go'ro'g'li" turkum dostonlari ham milliy o'zlikni anglashda katta ahamiyatga ega. Doston qahramoni Go'ro'g'li xalqni himoya qilish, adolatni qaror toptirish yo'lida kurashadi. Uning jasoratli ishlari va xalqiga bo'lgan muhabbatli yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda beqiyos vosita hisoblanadi.

Ertaklar ham yoshlar uchun milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagi, o'zining ma'naviy mazmuni bilan, yoshlarni mehnatsevarlik, sadoqat va halollik ruhida tarbiyalaydi. Ertakda Zumradning mehnatsevarligi va yaxshi niyati unga muvaffaqiyat keltiradi, bu esa yoshlar uchun milliy o'zlikni anglash va o'z madaniy merosiga hurmat bilan qarash zarurligini anglatadi.

Folklor asarlari, ayniqsa, axloqiy tarbiya vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. O'zbek xalqining boy og'zaki ijodi – maqollar, matallar, dostonlar va ertaklar – yoshlarda adolat, mehr-oqibat, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu asarlar xalqning turmush tarzini, axloqiy me'yorlarini, insoniy fazilatlarini yoshlar ongiga singdiradi.

Maqollar xalq og'zaki ijodining eng qisqa va mazmunli shaklidir. Masalan, "Yaxshilik qilsang, suvg'a sol – baliq bilmasa, Holiq biladi" maqoli yoshlarga yaxshilik qilish, saxovat va mehr-oqibatni ulug'laydi. Ushbu maqol orqali yoshlar yaxshilik qilishning ahamiyatini va uning axloqiy qiymatini anglaydi. Shuningdek, "Bir yomon ming g'avg'o, bir yaxshi ming davo" maqoli ham insonlarning jamiyatdagi o'rni va axloqiy fazilatlarining ahamiyatini tushuntiradi. Yaxshi insonning jamiyatdagi o'rni va ta'siri katta bo'lishini, yomon odamning esa ko'plab muammolarni keltirib chiqarishini anglatadi. Bu kabi maqollar yoshlarni yaxshi axloqli, mehribon va mas'uliyatli bo'lishga undaydi.

Ertaklar ham axloqiy tarbiya vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Masalan, "Boy va xasis" ertagi orqali yoshlar xasislikning zararli ekanligini, saxiylik esa insonni yuksaltirishini anglaydilar. Ertak qahramonlari orqali yaxshilik va yomonlikning natijalari ko'rsatiladi, bu esa yoshlar ongida axloqiy me'yorlarini shakllantiradi.

Folklor yoshlarning ijodkorlik va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Ertaklar va dostonlar, o'zining fantastik voqealari bilan, yoshlarni ijodiy fikrlashga undaydi. Bu asarlar orqali yoshlar hayotiy vaziyatlarni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish, yangi yechimlar topish va ularni amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Masalan, "Shirin buloq" ertagi yoshlar uchun o'ziga xos kashfiyotlar manbayi bo'lib xizmat qiladi. Ertakdagi qahramonlar – zukko va iqtidorli bolalar – o'zlarining aqli va mahoratlari harakatlari bilan qiyinchiliklarni yengib o'tadilar. Ushbu ertak yoshlarni turli qiyinchiliklarni yengib o'tish, yangi imkoniyatlarni kashf qilishga undaydi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, "Ko'kcha" dostoni ham yoshlarni ijodiy fikrlashga undaydi. Doston qahramoni Ko'kchaning

jasoratli harakatlari, uning turli muammolarni yechishda ko'rsatgan iqtidor va mahorati yoshlarni ijodiy va aqliy jihatdan rivojlantiradi. Ertaklarda aks etgan fantastik va real voqealar aralashmasi, yoshlarni o'z tasavvurlarini kengaytirishga, yangi va ilg'or g'oyalarni kashf qilishga undaydi. Bu jarayon yoshlarning tafakkurini rivojlantiradi, ularni ijodkor shaxslar etib shakllantiradi.

Folklor asarları milliy qadriyatları saqlash va ularni avloddan avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. O'zbek xalqining boy madaniy merosi – dostonlar, ertaklar, maqollar – yoshlar uchun milliy qadriyatları anglashda va ularni asrab-avaylashda katta ahamiyatga ega. Bu asarlar orqali yoshlar o'z xalqining madaniy merosi bilan yaqindan tanishadilar va uni saqlashga o'rganadilar. Masalan, "Kuntug'mish" dostoni yoshlar uchun milliy qadriyatları saqlashda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu doston orqali yoshlar vatanparvarlik,adolat,mehnatsevarlik kabi qadriyatları chuqur anglaydilar. Kuntug'mish qahramoni o'z xalqini himoya qilish, unga xizmat qilish yo'lida harakat qiladi, bu esa yoshlar ongida milliy qadriyatları saqlash va rivojlantirish hissini uyg'otadi. Shuningdek, "Mushfiq ona" ertagi ham milliy qadriyatları saqlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu ertakda ona mehri, onalik qadriyati aks etgan bo'lib, yoshlarni ona-onaga hurmat va sadoqat bilan munosabatda bo'llishga o'rgatadi. Bu jarayon yoshlar ongida milliy qadriyatları saqlash va ularga sodiq qolish hissini shakllantiradi.

Zamonaviy tarbiya tizimida folklordan foydalanish yoshlarning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda, texnologiyalar rivojlangan bir davrda,

yoshlarning e'tibori ko'proq zamonaviy ommaviy axborot vositalariga qaratilgan bo'lishiga qaramay, folklorning zamonaviy tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati hech qachon kamaymagan. Aksincha, zamonaviy axborotlar oqimida milliy qadriyatlarini saqlash va yosh avlodga yetkazish maqsadida folklor asarlarini yanada ko'proq targ'ib qilish zarur.

Zamonaviy ta'lif tizimida folklordan foydalanish yoshlar uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarini anglashda, jamiyatda o'z o'rnini topishda va o'zini namoyon qilishda muhim vosita hisoblanadi. O'zbek xalqining boy folklori, o'zining ma'naviy va axloqiy mazmuni bilan, zamonaviy tarbiya jarayonida asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Folklor asarlarini zamonaviy ta'lif jarayoniga joriy etish yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, ularning ma'naviy va axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu borada maktablar, kollejlar va universitetlarda folklor asarlarini o'rganish va tahvil qilish orqali yoshlarni milliy madaniyatga qiziqishlarini oshirish mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi darslarda "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlari, "Zumrad va Qimmat", "Boy va xasis", "Oltin beshik" kabi ertaklarni o'rganish orqali yoshlar o'z milliy qadriyatlarini anglaydilar. Bu asarlar zamonaviy talaba va o'quvchilarning milliy o'zlikni anglashlarida, ma'naviy yetuk shaxslar sifatida shakllanishlarida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, maktab va oliv ta'lif muassasalarida xalq maqollari va matallari ustida ish olib borish, ularni zamonaviy hayotda qanday qo'llash mumkinligi haqida bahsmunozaralar tashkil etish orqali yoshlarning axloqiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Masalan, "Birovga choh qazisang, o'zing tushasan"

Folklor ansambil. Xorazm





"Shalola" folklor-ethnografik xalq ansambili. Boysun

maqoli asosida o'tkaziladigan munozaralar yoshlarni adolatli bo'lishga, boshqalarga nisbatan yaxshi niyatda bo'lishga o'rgatadi.

Folklor asarlarining zamonaviy ta'lif tizimida o'rganilishi, shuningdek, yoshlarning ijodiy va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ertak va dostonlar asosida yangi hikoyalari yozish, ulardag'i voqealarni zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilish, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali bo'lishi mumkin.

Yoshlar tarbiyasida folklorning rolini kuchaytirish uchun bir necha choralar ko'rish zarur. Eng avvalo, folklor asarlarini yoshlar orasida targ'ib qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak. Masalan, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali xalq dostonlari, ertaklar va maqollarni keng targ'ib qilish orqali yoshlarni milliy madaniyatimizga qiziqtirish mumkin. Shuningdek, maktablar va universitetlarda folklorga bag'ishlangan maxsus to'garaklar tashkil etish, xalq ijodiyoti bilan yaqindan tanishdirish orqali yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga qiziqtirish mumkin. Bu to'garaklar orqali yoshlar nafaqat o'zbek folklorining boy merosi bilan tanishadilar, balki o'zları ham xalq ijodiyotiga hissa qo'shish imkoniyatiga

ega bo'ladilar. Yana bir samarali chora – bu folklor asarlarini zamonaviy hayotga moslashtirishdir. Ertaklar va dostonlar asosida zamonaviy hikoyalari, filmlar va multfilmlar yaratish orqali yoshlar orasida milliy qadriyatlarni saqlash va ularga sodiq qolish hissini mustahkamlash mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, folklor yoshlar tarbiyasida nafaqat axloqiy va ma'naviy jihatdan, balki ijtimoiy, madaniy va ijodiy jihatlarni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. O'zbek xalqining boy folklori yoshlarga milliy o'zlikni anglash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ijodkorlik va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishda beqiyos vosita hisoblanadi. Folklorning zamonaviy ta'lif tizimiga keng joriy etilishi, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi. Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, ularni yosh avlodga yetkazish har qachongidan ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu bois, folklorning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini kuchaytirish, uni zamonaviy tarbiya tizimiga kengroq joriy etish zarur. Bu nafaqat yosh avlodning ma'naviy yetukligini, balki milliy madaniyatning saqlanishi va rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Folklor asarlarini yoshlar uchun milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni saqlash va rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa yoshlarni kelajakda jamiyatning faol, ongli va mas'uliyatlari a'zolari etib shakllantiradi. Shu tariqa, folklor nafaqat madaniy meros sifatida, balki millatning kelajagini ta'minlovchi tarbiya vositasi sifatida ham yuksak qadrlanishi lozim.



# Sharqona choyxona

A'lo Isakova,  
magistrant

Choyxonachi — barvasta, o'ktam,  
Qoyil qolsin rus, deb, choyimga,  
O'tkir aroq, may o'rniqa ham  
Achchiq-achchiq choy tutar menga.

*"Fors taronalari"* S. Yesenin.  
(E.Vohidov tarjimasi)

Choyxona? Nega aynan sharqda? Dastavval, choy, choyxona va san'atni o'zaro nima bog'lab turganiga to'xtalsak.

Miloddan avvalgi III ming yillikda Xitoy tarixida ko'p asrlar davomida jahon iqtisodiyoti va savdosining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan ajoyib hodisa ro'y berdi: choy kashf etildi. Bu haqda Xitoy yozma manbalarida va afsonalarida (Shen Nun haqida afsonalar) bir qator ma'lumotlar saqlanib qolgan. Keyinchalik Yaponiya, Korea, Hindiston, Shri Lanka kabi davlatlarda ham choy yetishtirila boshlangan. O'zbekistonda esa choy ichish qachondan boshlab urf bo'lgani haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ayrim manbalarga ko'ra, choy Turkiston shaharlariga hind savdogarlarini vostiachiligidagi kirib kelgan. Bu to'xtamga kelinishiga 1923-yilda hind savdogarlarini tomonidan O'rta Osiyoda yagona va chetdan keltiriladigan xomashyoda ishlaydigan Samarcand choy qadoqlash fabrikasi ishga tushirilishi sabab bo'lgan. Yozma manbalarga ko'ra, 1913-yilda O'rta Osiyoga chetdan 720 ming pud choy keltirilgan (75% ko'k choy), uning 240 ming pudi Turkiston o'lkasida, 150 ming pudi Buxoro xonligida, 40 ming pudi Xiva xonligida sotilgan.

"Choyxona" atamasiga kelsak, dastlab choy mahsulotini juda qimmat narxlarda bo'lgan va hatto bu mahsulot XIX asrga qadar Mo'g'uliston, Tibet va Sibir davlatlarida valyuta sifatida qo'llanilgan. Avvaliga juda tansiq hisoblangan choy ichimligi faqatgina

oliynasab xonadonlarda iste'mol qilingan. Oddiy odamlarning kundalik hayotida choy iste'mol qilish imkoniyati bo'lman. Bu ichimlik faqatgina choy tayyorlanadigan maxsus jamoat joylarida, yonida quritilgan mevalar yoki qand-qurs bilan ichilgan. Bu kabi manzillar mahalla guzarlari, bozorlar va masjid-madrasalar atrofida qurilgan. Juma namozlaridan keyingi va'zlar, qozi kalonlarning oxirigi ko'rgan ishlari yoki imomlarning fatvolari haqida aynan shu yerda xabar topishgan va muhokama qilingan. Ko'pgina masalalar guzardagi choyxonalarda hal qilingan. Shaharlardagi choyxonalarda qishloqlardan, uzoq yurtlardan kelgan mehmonlarni kutib olish uchun maxsus hujralar bo'lib, mehmonxona vazifasini ham bajargan. Chet ellardan kelgan insonlar shahar hayoti, xalqning urf-odati, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar bilan shu yerda tanishgan.

Sharq azaldan o'ziga san'at ahlini maftun qilib kelgan. Agar Yevropa rangasviriga e'tibor qaratsak fransuz rassomi Henri Matiss sharq san'atidan ilhomlangan. Ayniqsa, Kamoliddin Behzod yaratgan miniatyura asarlarini uning ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Yorqin va keskin ranglar, ornamentlar, kompozitsiya va sof ranglarda ishlagan "Rassomning ustaxonasi", "Qizilxona" asarlarida sharq amaliy san'atini ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Yoki oltinsoch rus shoiri Sergey Yesenin 1924-1925-yillarda O'rta Osiyo va Kavkazorti mintaqalarida sayohatda bo'lgan. Yesenin qisqa vaqt bo'lsa-da Toshkentda ham yashagan, bir muddat Samarqandda bo'lgan. Yeseninning "Fors taronalari" (1924-1925) deb nomlangan she'rlar turkumi Hofiz, Sa'diy Sheroyi, Umar Hayyom kabi sharq ijodkorlariga cheksiz hurmat-ehtirom mahsuli sifatida dunyoga keldi. Sharq ertakona jozibasi bilan ijod ahlini qayta va qayta o'ziga chorlayvergan.

1920-yillarda boshiga kelib Markaziy Osiyo bolsheviklar qo'liga o'tdi va dastlabki qurolli qarshiliklarga qaramasdan, O'zbekiston va Markaziy Osiyoning qolgan qismi Sovet Ittifoqi tarkibiga kiritildi. 1924-yil 27-oktyabrda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzildi. Bu davrlarda ittifoq tarkibiga kiruvchi respublikalardan ijtimoiy rivojlanishning an'anaviy jamiyat tuzilishi, asrlar davomida shakllangan madaniyat turi, odamlar o'rta sidagi munosabatlari taqiqlandi. Mintaqalarda xalqlari yagona Sharq, musulmon sivilizatsiyasi va



Samarqanddagagi choyxona. P. Kildyushev fotosi. 1926

ko'chmanchi hudud dunyosidan ajralib, tubdan farq qiladigan Yevropa madaniyati bilan tanishdilar. Shu sababli, tasviriy san'atning shakllanishi an'anaviy jamiyatning butun tizimidagi tub o'zgarishlar sharoitida, uning o'rniغا yangi, Yevropa genezisi, tasviriy san'at turlari va janrlarini joriy etish uchun musulmon madaniyati asoslarini rad etish orqali sodir bo'ldi.

Albatta, XX asr san'ati, oldingi davrning badiiy madaniy avvaligi davrlar san'atidan tubdan farq qiladi. 20-yillarning boshlarida bir tarafдан jamiyat va siyosiy qarashlar o'zgarganligi madaniy, an'anaviy va diniy qarashlarning majburiy qardsizlantirilishi, boshqa tarafdan Sharq rassomlarining utopik va falsafiy sharqona qarashlari Turkistonga kelgan rus rassomlari ijodida rivojlanib boradi. Sharqqa bo'lgan bu ikki xil munosabatlar A. Hakimov terminologiyasiga ko'ra milliy afsonalar (memorial) va ijodiy afsonalar (futurologik) asosida sovet hokimiyatining totalitar tuzumining o'rnatilishi bilan o'zgarib bordi.

O'zbekistonga birinchilardan bo'lib kelgan rus rassomlari Aliksey Isupov, Aleksandr Volkov, Usto Mo'min (Aleksandr Nikolayev), Pavel Benkov va boshqalar eng avvalo yurtimizning bag'rikeng mehmondo'st xalqiga oshiq bo'ldilar. Markaziy Osiyoda ishlagan Isupov atrofdagi hayotni bevosita kuzatish bilan cheklanib qolmadı. Isupov tempora bilan yog'ochdan yasalgan faneraga bir qator asarlar yozdi. U sanamnavislik (иконография) san'ati an'analari va Sharq miniatyurasi texnikasining noyob tarafalarini chuqr o'rganib, o'z mualliflik talqinini taqdim etadi. Aliksey Isupovning 1921-yilda ishlagan "Sharqona kafe" asarini sharqqa xos jozibador va sirli kundalik madaniyati va qadimiy an'alarining ramzi sifatida talqin etadi. XX asr boshlarida sharqona choyxona egasi qo'llarida padnos tutgan holda mehmonlarni choyga taklif etadi. "Sharq kafesi" asari sharqning jozibali va sirli madaniyati va qadimiy an'alarining o'ziga xos ramzidir. Ranglarning mohirona o'yashi va chiziqlarning ravonligi asarda



Aleksandr Volkov. Anorli choyxona. 1924

yigitning hayratlanarli darajada she'riy qiyofasini yaratadi, uning tashqi ko'rinishi va ajoyib ko'rinishdagi sharqona ertaklarning syujetlarini aks ettiradi...

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida choyxona katta metamorfozlarga uchraydi u targ'ibot va tashkiliy-ma'rifiy faoliyat markaziga aylanadi. XX asrning 20-yillarida bolsheviklar mafkuraviy ishlarni bajarishda mahalliy aholiga yaqin va tushunarli bo'lgan xalq urf-odatlardidan mohirona foydalanganlar. Turkiston siyosiy, madaniy-oqartuv boshqarmasining 1921-yil 28-iyunda tasdiqlagan "Agitatorlarga ko'rsatma"da aholi amal qilayotgan mahalliy turmush sharoitini, urf-odatini, didi, axloqi, e'tiqodi, dam olishi, mashg'uloti va hokazolarga diqqat bilan e'tibor berish kerakligi bejiz aytilmagan edi. So'zimizning isboti sfatida Mixail Kurzinning 1932-yilda ishlagan "Qizil choyxona" asarini e'tiboringizga havola etamiz. 1930-yillarda totalitar tuzumning san'at va adabiyotga qo'ygan qat'iy kanonlari Yevropa rangtasviri va mahalliy amaliy san'at namunalaridagi yorqin va issiq ranglar bilan uyg'un tarzda izlanishlar olib borayotgan rassomlarni ancha chegaralab qo'ydi. Ijodkorlar mafkuraviy agitatorlikka xizmat qiladigan asarlar ishslash majburiyatida qoladi. M.Kurzinning asarida tipik choyxona aks ettiriladi. Peshayvon, hovuz, xontaxtalarda bir piyola choy ustida suhbatlashayotgan mo'ysafidlar. Ammo asosiy koloritni alvon ranglar bilan belgilaydi. Ustunda karnay o'rnatadi. Undan doimiy mafkuraviy agitatorlik nutqlari eshitilib turadi. Peshayvonning shift qismlarida rangli bayroqchalar iladi. Asarning markazida ustunga qadalgan iqtidorning portretini ishlaydi. Qizil ranglar asarga o'zgacha ruh beradi-bolsheviklar tomonidan ezlган xalqlarningadolati uchun kurash ramzi sifatida ko'tarilgan qon rangi.

Bu davrlarda choyxonalar nafaqat mafkuraviy ishlarga yo'naltirilgan balki milliy ma'rifatparvarlar harakatlarini a'zolarini kengashadigan manzili ham edi. Pavel Benkovning 1932-yilda ishlangan "Eski Buxoroning savdo gumbazlari ostida. Choyxona" asarida bozor atrofidagi choyxonani tasvirlaydi. Asar



"Navbahor" choyxonasi. Toshkent. V. Goncharenko fotosi. 2024

impressioncha an'analar bilan ishlangan. Choyxona shundoqquina bozor timi ostonasida joylashgan bo'lib, tashfir buyuruvchilar va bozordan qaytayotgan insonlar bir oz orom olish va choy ichishga qulay joyda ochilgan. Orqadan esa navbatdagi yuk ortilgan tuyalar kirib kelmoqda. Choyxonachining bozori bugun ham chaqqon. Rassom ongli ravishda mafkuraviy kontekstdan qochib, eski Sharq shahar hayotining bir lahzalik epizodining jozibasini yetkazishga harakat qiladi.

Umuman Buxorochoyxonalari haqida gapketganda etnograf olim, akademik Karim Shoniyofovning otalari Shoniyoz ota Buxoroning Labi hovuzida choyxona ochgani haqida gaplarini eslash maqsadga muvofiq bo'ladi. Asosan baliq pishirilgan choyxonaga Buxoro jadidlari "Yosh buxoroliklar" juda ko'p tashrif buyurishgan va istiqboldagi rejalarini muhokoma qilishgan. Yosh buxoroliklarga mahaliy diniy ulamolar qarshi edi. Shu sababdan masjid yoki madrasada majlis qila olmagan buxoroliklar Labi hovuzdagichaoyxonada yig'ilishadi. Choyxona faqatgina dam olish, tamaddi qilish joyi emas balki zamon ma'rifatparvarlarining manzili ham hisoblangan. Choyxonada navbatdagi majlis bo'layotganda amir mirshablari kelib hammani



Mixail Kurzin. Qizil choyxona. 1930



Aleksandr Volkov. Choyxona. 1936

hibsga oladi. Ular orasida Shoniyoz ota ham bor edi, u so'roq paytida olgan jarohati natijasida nogiron bo'lib qoladi va bir necha oydan so'ng vafot etdi. Go'dak o'g'li esa yetim qoladi.

Aleksandr Volkov ham choyxona mavzusiga juda ko'p murojaat qilgan. San'at ixlosmandlari uning 1924-yildagi "Anorli choyxona" asarini yaxshi bilishadi, u 1937-yilda Parijda Gran-priga sazovor bo'lgan va hozirda Moskvadagi Tretyakov galereyasi kolleksiyasining faxri hisoblanadi. Ushbu durdona asarning mistik va badiiy ahamiyati ko'plab ilmiy asarlarda mukammal tarzda ochib berilgan. Biz bu safar bu haqida yozmamiz. Balki, Volkovning 1936-yilda ishlagan "Choyxona" asariga e'tibor



qaratamiz. Asarda chilim chekayotgan insonning ko'zлari nim suzilgan, go'yoki dunyo tashvishlari sekin-astalik bilan chekinib, o'zi tassavur qilgan utopik diyorga safar qilayotgandek. Tomoshabinga yon tomonlama turgan ikkovlon va qovoqni qo'llarida tutib turgan yigitcha esa chilim chekayotgan insonning yoki chilimning ta'sirini kuzatmoqda,

Rassomlar tomonidan choyxona mavzusini talqin qilishning yangi davri XX asrning ikkinchi yarmida, sotsialistik realizm usuli o'z mavqeini sezilarli darajada mustahkamlab, barcha turdag'i va janrdagi rassomlarning asarlari uslubi va mazmunini belgilab bergenida boshlanadi. Shaklan milliy, mazmunan sosialistik, tarkiban baynalminal shiori ostida ko'plab asarlar yaratildi. Zokir Inog'omovning 1958-yilda yaratilgan "Choyxonachi" asarida milliy ruhi, qahramonlarining qiyofalari jonli, hayotiy ifodalanganligi bilan diqqatga sazovor. Milliy kiyimda tomoshabinga tabassum qilayotgan qahramonimiz hayotdan mammun. Yoshi, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar hamma teng huquqlidir. Shodon qo'shiq xirgoyi qilib paxta terimiga ketayotgan ayollar, dalada bog'chalarida o'ynayotgan bolalar, zabardast mexanizator ayollar, uzum terimiga hasharga kelgan maktab o'quvchilari kabi syujetlar davlat buyurtmasi asosida bo'lib, ba'zan yaxshigina haq to'lana edi. Bu yillarda xalq maqollari – askiyachi va taniqli qo'shiqchilar, an'anaviy maqom ijrochilar va katta ashulachilar mehmonlarini o'zlarining chiqishlari bilan xursand qilishdi. Xullas, choyxona bir vaqtlar eng erta ochilib, eng kech yopiladigan, ba'zan esa kun tunga, tun kunga ulanib ketadigan dargoh edi.

1960-yillarning boshlarida Mik Jagger, Elvis Presli, Jim Morrison va boshqa ko'plab Yevropa musiqchilari talabalar orasida ikonaga aylandi. Yoshlar tor yoqali tiniq oq neylon ko'ylaklar, tor qo'njli etiklar, yupqa galstuklar, charm kurtkalar va oq paypoqlar kiyishadi. Qizlar qisqa soch turmagiga ega, ko'ylak va shim kiyishadi. San'at va madaniyat sohasida ham yevropalashish juda ommalashib ketdi. Endi choyxonalarga raqobatchi sifatida kafelar, barlar va restoranlar ommalashdi. Yoshlarning asosiy qismi ko'gilochar joylarni tanlashardi. 1966-yilda Konstantin Suryayev ishlagan "Kafeda" asari bu fikrimizning yaqqol dalilidir. Asarda zamonaviy kiyingan yigit-qizlar musiqaga mos raqs tushmoqda. Bu yillarda ma'nnaviy va diniy qarashlar sezilarli darajada pasayib ketdi va mahalliy aholi va yoshlarda baynalminal madaniyat hukm surgan.


1980-yillarning ikkinchi yarmida qayta qurish davrida rassomlar asta-sekin sotsialistik realizmdan uzoqlasha boshladilar. 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy san'atning poetikasi va mazmuni tubdan o'zgardi. Ushbu o'zgarishlar bir qator ijtimoiy va siyosiy omillarni ko'rsatdi. Rassomlar hech qanday shov-shuv va marosimlarsiz tarixiy va madaniy o'tmish bilan bog'liq mavzularni tasvirlay boshladilar. O'zbek rasmlarida metaforik, she'riy-majoziy qarorlar ustunlik qiladi, rassomlar tarixiy-madaniy mavzular ustida ijodiy erkin uslubda ishlay boshladilar.



Rustam Bozorov. Lag'monxona. 2023

Ta'kidlash joizki, choyxonalar taqdiri ham tubdan o'zgardi. Ko'plab oshxonalar restoranlarga, oshxonalar huzuridagi choyxonalar esa, o'z-o'ziga xizmat qilish tartibga o'tdi. Natijada bir vaqtlar butun dunyoni o'ziga chorlagan choyxonaning chinakam mohiyati tobora yo'qqa chiqdi. Tezkorlik dolzarb muammo darajasiga chiqdi. Choyxonalarning juda ko'pchiligidagi mis samovarlar, chinni choynaklar, piyolalar o'rniغا bak, tunuka choynak, stakanlar paydo bo'ldi. Chorpoyalar o'rnnini stol va stullar egalladi. Haqiqiy mumtoz uslubdagi choyxonalar barmoq bilan sanarli darajaga kamayib ketdi. Shu o'rinda To'ra Shomirzayevning 1994-yilda ishlagan "Choyxonachi" asari yuqoridagi fikrlarimizing yaqqol dalilidir.

So'ngi yillarda faqat bir turdag'i taom pishirishga mo'ljallangan oshxonalar tizimi va Yevropadan juda tezlikda kirib kelgan fast-food tarmoqlari ishga tushirildi. Lag'monxona, osh markazlari, KFC va shu kabi manzillar shahar va viloyatlarda har qadamda uchrashi tabiiy holga aylandi. Uyda ovqat tayyorlash o'rniغا yarim tayyor yoki tayyor taomlarni buyurtma asosida olish ommalashdi. Buning natijasida aytish mumkinki, choyxona madaniyati, musofirparvarlik faqatgina moddiyat bilan bog'liq statusga aylanib bordi.



Zokir Inag'omov. Choyxonachi. 1958



Pavel Benkov. Choyxona. 1932

Globallashuv nafaqat bizning san'atimizga, balki kundalik madaniyatga ham ta'sir ko'rsatdi. Bizning ko'p asrlik urf-odatlarimiz, xususan, choyxona madaniyatimiz ham qaysidir ma'noda yo'qolgan.

Albatta, bu kabi yo'qotishlar achinarli, ammo o'zbek xalqining choyga bo'lgan munosabati asrlar davomida o'zgarmadi. Endi esa choydan oling. Bizning jurnalimiz muqovasidagi choyxonachi sizni shinamgina o'zbek choyxonasiga taklif qiladi. Ko'k choy, qora choy, mevali choy, boring ana asal choydan iching va salomat bo'ling!



Jurnal tahriri Toshkentdagi Navbahor choyxonasiga tashrif buyurib, katta shahar bugungi kunda ham "Sharq kafesi"ning shinam sukunatiga muhtojligiga ishonch hosil qildi

## Akademik Karim Shoniyofov – 100 yoshda



Akademik, etnograf olim Shoniyofov Karim Shoniyofovich, 1990-yillar

Respublikamizda ilm-fan sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Olamdan o'tgan yirik olimlarni xotirlash, hayotlarini qadrlash an'anaga aylangan. Bu yil respublikamizda mashhur etnolog-tarixchi olim, akademik Karim Shoniyofovning 100 yillik yubileyi keng nishonlanmoqda. Yubiley munosabati bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar o'tkazilmoqda, bir qator maqlolalar nashr etildi. Olimning 100 yilligiga ilmiy anjuman o'tkazildi.

Karim Shoniyofov 1924-yil 1-oktyabrdagi Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Qarluq qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Uning bobolari asli Buxorodan bo'lган. Dastlab bir yoshida onasidan, 6 yoshida otasidan ajralgan Karim dastlab buvisining qo'lida, keyin maktab-internatda tarbiyalanadi.

Karim Shoniyofov mehnat faoliyatini juda erta boshlagan, 11 yoshidan kolxozda ishlagan. 1941-yilda o'z ixtiyori bilan frontga ketgan, Ikkinci jahon urushida Leningrad, Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo'yini frontlarida qatnashgan. U motorlashtirilgan razvedka

vazvodining komandiri bo'lgan va Ruminiya, Polsha va Germaniyada jang qilgan. Jasorati va matonati uchun 5 ta orden, 15 ta medal bilan taqdirlangan.

Karim Shoniyofov urushdan keyin 1952-yilda Toshkent davlat pedagogika institutini tugatib, O'zbekiston SSR Davlat xavfsizlik qo'mitasi xodimi, texnikumda o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1957-1960-yillarda SSSR Fanlar akademiyasi Etnografiya institutining Leningrad bo'limida aspiranturada o'qib, ustozi mashhur turkolog Leonid Potapov ilmiy rahbarligida turkiy xalqlarning etnik tarixining bilimdoniga aylangan.

K.Shoniyofovning butun faoliyati O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bilan bog'liq bo'lib, katta ilmiy xodim (1960-67), bo'lim mudiri (1967-73), yetakchi ilmiy xodim (1999-2000) lavozimlarida faoliyat yuritgan. O'zbek xalqi etnogenezi, etnik tarixini o'rganish bevosita Karim Shoniyofov nomi bilan bog'liq, olim ushbu mavzu yuzasidan qator ilmiy asarlar e'lon qilgan. Olimning ilk yirik ilmiy asari "O'zbeklar-qarlungalar (tarixiy-etnografik ocherk)" monografiyasi 1964-yilda chop etilgan. Bu asar o'zbeklarning yirik etnografik guruhlaridan biri – Qarlungalarga bag'ishlangan. Asarda K.Shoniyofov etnik tarixni, o'zbek xalqining shakllanish jarayonini chuqur o'rganishni davom ettirib, Qang'lilar, Qipchoqlar, Yuzlar, Qurama va boshqalar kabi alohida komponentlar ustida tarixiy-etnografik tadqiqotlar olib borgan.

K.Shoniyofov 1975-yilda "O'zbek xalqining etnik tarixi haqida" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan, 1990-yilda professor unvonini olgan. Shuningdek, u "Qang' va Qang'lilar" (1990), "Qarlungalar va qarlungalar davlati" (1999) kabi fundamental asarlar muallifi. U o'zbeklarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa xalqlar bilan aloqalari, turkiy tilli xalqlarning o'zbeklar etnogenetida tutgan o'rni masalalarini o'rgandi. Olim ushbu masalalarga



Karim Shoniyofov 1940-yillar



Karim Shoniyofov 1940-yillarda

ko'plab maqolalar, jamoaviy monografiyalarning bo'limlari, konferensiylar va simpoziumlardagi ma'ruzalarini bag'ishlagan. Ular orasida "O'zbekiston SSRdagi zamonaviy etnik tarkib va etnik jarayonlar" (1970); "O'zbeklarning Markaziy Osiyoning boshqa turkiyzabon xalqlari bilan etnik-madaniy aloqalar" (1976); "XIV-XVIII asrlarda o'zbeklarning etnik dinamikasi va etnik aloqalarining ayrim masalalari" va boshqalar.

K. Shoniyofov qator etnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan, bu ekspeditsiyalar natijasida O'zbekistonning deyarli barcha hududlari o'rganilib, turli etnografik muammolarga oid ulkan, noyob dala materiallari to'plangan. Olim 1980-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti etnologiya bo'limida tayyorlangan "O'zbeklar" jamoaviy monografiyasida etnografiyaga oid ko'p yillik izlanishlarini sarhisob qilgan. Olim hammalliflar bilan birgalikda to'rt jildlik "O'zbekiston SSR tarixi" (1968) va "O'zbekiston tarixi" (III jild. 1993) asarlar yaratdi. U ushbu kitoblardan tarixning turli davrlarida o'zbeklar hayoti va madaniyati haqida bob va bo'limlarni yozgan. U Moskva, Leningrad va ko'plab ittifoq respublikalari etnograflari bilan faol hamkorlik qilgan, qator jamoaviy tadqiqotlar muallifi bo'lgan: "O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari xo'jaligi tarixining ocherklari" (L., 1973); "O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining iqtisodiy va madaniy an'analar" (Moskva, 1975); "O'rta Osiyo va Qozog'iston milliy guruhlaridagi etnik jarayonlar" (Moskva, 1980).

K. Shoniyofovning ilmiy qiziqishlari juda ko'p edi: qishloqdagi ijtimoiy munosabatlar, umumiy yerdan foydalanish, yerga egalik qilish shakllari,




o'zbeklarning an'anaviy xalq bayramlari, o'yinkulgilari va boshqa masalalarni o'rgangan. X. Ismoilov bilan birgalikda 1981-yilda "O'zbeklarning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi etnografik ocherklari"ni yozgan. Olimning so'nggi ilmiy ishi "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" nomli asari bo'lgan. Bu fundamental asar bo'lib, unda muallif yangi manbalar asosida o'zbeklarning I asrdan boshlab etnogenezi va etnik tarixi haqida keng ma'lumot bergen. K. Shoniyofovning ilmiy ishlari o'zbeklar tarixiy etnografiyasining asosiy muammolarini ishlab chiqishga fundamental hissa bo'ldi.

K. Shoniyofov mashhur sharqshunos olim S. Azimjonova bilan turmush qurgan. Bir o'g'il, bir qizni, ko'plab nevaralar, chevaralarni tarbiyalagan. U "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni bilan taqdirlangan. 1994-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, 2000-yilda esa haqiqiy a'zosi etib saylangan.

Karim Shoniyofov 2000-yil 5-oktyabrdan vafot etgan. Hozirda olimning o'nlab shogirdlari entogenetika va etnik tarixning turli dolzarb masalalari bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Respublikada K. Shoniyofov xotirasiga bag'ishlangan "Akademik K. Shoniyofov o'qishlari" ilmiy seminarini o'tkazish an'anaga aylangan.

*Internet materiallari asosida M. Abdullayev tayyorladi.*



**Q.R. Allayev**  
**Zamonaviy energetika va uning rivojlanish istiqbollari.**  
*Akademik A.U. Salimovning umumiy tahriri ostida*

**“Fan va texnologiya” nashriyoti. Toshkent 2021, 952 bet.**

2 qismdan iborat monografiyada 2040-2050-yillarga qadar jahon va O’zbekistonda energetikaning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari tahlil etilgan.

Birinchi qismda Xalqaro energetika agentligi (XEA) tomonidan ishlab chiqilgan jahon energetikasini rivojlanirish ssenariylari, 2040-2050-yillarga qadar neft, tabiiy gaz, ko’mir, atom energetikasi, qayta tiklanadigan manbalar, jumladan, vodorod energiyasi bilan global ta’minlanish holati ko’ribchiqiladi. Intellektuallashtirish, raqamlashtirish, dekarbonizatsiya va taqsimlangan energiyani amalga oshirish masalalari, shuningdek, energiyaning atrof-muhitga ta’siri o’rganildi. Energiya ishlab chiqarish va iste’mol qilishning energiya samaradorligini oshirish muammolari alohida muhokama qilinadi.


Ikkinci bo’limda O’zbekiston Respublikasining elektroenergetika sohasiga oid ma’lumotlar keltirilgan. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning farmon va qarorlari, shuningdek, hukumatning elektroenergetika sohasini rivojlanirishga oid qarorlarini amalga oshirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti va aholisini elektr energiyasi bilan ta’minlashda muvaffaqiyatlarga erishilayotgani ko’rsatilgan. O’zbekiston ishonchli va sifatli elektr va issiqlik energiyasiga ega. O’zbekistonda atom energiyasi va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan o’rta va uzoq muddatli istiqbolda – 2050-yilgacha foydalanish istiqbollari alohida ta’kidlangan.

Monografiya energetika korxonalari va idoralari, o’rta va uzoq muddatli istiqbolda energetikani

## YANGI NASHRLAR

rivojlanirish bilan shug’ullanuvchi tashkilotlar rahbarlari, tadqiqotchilar va doktorantlar, shuningdek, energetika mutaxassisliklari bakalavriat va magistratura talabalariga tavsiya etiladi. Taqdim etilgan ma’lumotlar jahon va O’zbekiston energetikasini rivojlanirishga qiziqqan barcha o’quvchilar uchun foydali bo’ladi.

*Monografiya rus tilida o’zbek va ingliz tillarida qisqacha izohlar bilan nashr etilgan.*



### Mualliflar jamoasi

**Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosining jahon ilm-fani rivojiga qo’shgan hissasi**

*Ma’sul tahrirlovchilar: professor B.A. Abduhalimov, PhD M. Hojimatov*

### “MA’NAVIYAT” nashriyoti Toshkent. 2023

Kitob buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligiga bag’ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami hisoblanadi. Xalqaro konferensiya materiallari to’plamiga AQSh, Indoneziya, Italiya, Malayziya, Marokash, Misr, Pokiston, Rossiya, Turkiya, Turkmaniston, Tojikiston, Qиргизистон, Eron, Hindiston, O’zbekiston va boshqa mamlakatlarning taniqli sharqshunos olimlari va tarixchilari tomonidan o’zbek, ingliz va rus tillarida taqdim etilgan ilmiy ma’ruzalar kiritilgan, taniqli mutafakkir va olim-ensiklopedist Abu Rayhon Beruniyning hayot yo’li va ijodiy faoliyati, jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan hissasi, ilm-fan va amaliyoti haqida hikoya qiladi.

*To’plamda o’zbek, ingliz va rus tillarida asl nusxadagi ma’ruzalar mavjud.*



**A. A. Umarov**  
**Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ilmiy muassasalarining innovatsion faoliyati**  
*Ma'sul muharrir M.V.Kremkov, professor, RTFA akademigi*

**"Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent, 2016.**

Monografiya milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ilmiy muassasalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, ustuvorliklari va istiqbollarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Innovatsion faoliyatni qonunchilik, tashkiliy, kadrlar, moddiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy va axborot bilan ta'minlash masalalariga, shuningdek, ilmiy muassasalarining ilmiy va innovatsion faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholashga alohida e'tibor qaratildi. Olimlar tomonidan innovatsion loyihalarini amalga oshirish natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini rivojlantirish, ilgari surish, amalga oshirish va tijoratlashtirishga hissa qo'shadigan moliyalashtiruvchi va infratuzilma tashkilotlari ishtirokidagi ilmiy muassasalarining innovatsion faoliyatini faollashtirish maqsadida turli omillar, shu jumladan xatarlar ta'sirining dolzarb muammolari ko'rib chiqildi.

Kitob makroiqtisodiyot muammolari, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va ilmiy muassasalarining innovatsion faoliyati sohasiga ixtisoslashgan ilmiy xodimlar, iqtisodchilar, doktorantlar, magistrler va universitet talabalari uchun mo'ljallangan.

*Monografiya rus tilida nashr etilgan.*



**B.M. Beglov, Sh.S. Namazov, A.R. Seitnazarov, A.M. Reymov, B.S. Zokirov**  
*Fosfogipsi利用*

**"METODIST NASHRIYOTI" nashriyoti , Toshkent, 2023**

Monografiya ekstraksiyali fosfor kislotasi ishlab chiqarishning yirik chiqindilari bo'lgan fosfogipsdan foydalanish va utilizatsiya qilish muammolariga bag'ishlangan. Fosfogipsdan foydalanish usullari ko'rsatilgan, jumladan:

- sho'rlangan tuproqlar uchun meliorant,
- qoramollar uchun ozuqa qo'shimchasi,
- qog'oz to'ldiruvchi,
- mineral va organomineral o'g'itlarning turli markalarini ishlab chiqarishda xom-ashyo komponenti
- ammoniy va kaliy. sulfatlar, murakkab o'g'itlar, sekin ta'sir qiluvchi va donador o'g'itlar. Fosfogipsni qayta ishlashning termal usullari tavsiflangan, jumladan:
- gidravlik bog'lovchilar, oltingugurt dioksidi va ohak ishlab chiqarish,
- oltingugurt dioksidi va portland sement klinkeri,
- sulfoalyuminat silikat sement, shuningdek oltingugurt va fosfogipsdan kalsiy ftorid olish usullari ko'rsatilgan. Forfogipsning toksikologik va gigiyenik xususiyatlari berilgan.

Kitob O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiylari va noorganik kimyo instituti xodimlari – mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan bo'lib, olimlar va kimyo sanoati mutaxassislar, shuningdek, doktorantlar, magistrantlar va oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan.

*Monografiya rus tilida nashr etilgan.*



## Bolalar uchun raketa haqida hikoya

Bugungu kunda raketa odamlarga ajablanarli tuyulmasligiga qaramay, atiga bir nechta insonlargina uning qanday ishlashini bilishadi. Ammo bundan ham ko'proq odamlar raketaning qanday uchishini tasavvur ham qilishmaydi. Keling biz birgalikda buni tuzatamiz. Va bundan tashqari, biz raketalar fanining haqiqiy mutaxassislariga aylanamiz!

1696 yilda Pyotr I nemis tilida harbiy o'q-dorilar, kema signallari yoki otashin o'q-dorilar yordamida "raketa!!!" deganida paydo bo'ldi.

Nemis tilidan tarjima qilingan so'zning o'zi qalin qog'oz naychadan iborat snaryadni anglatadi, uning ichida chang aralashmasi mavjud va oxiriga yog'och novda biriktirilgan.

Bu esa inson o'z raketasini ixtiro qilish orzularga turki bo'lganligi ajablanarli emas!

Aytgancha, o'zini mustaqil bilim olgan daho olim deb hisoblangan sovet ixtirochisi dunyoda birinchi bo'lib raketani ixtiro qildi. Uning ismi Konstantin

Eduardovich Siolkovskiy edi. Tadqiqotchining o'zi aytganidek, "Tunda teleskop orqali yulduzlarni tomosha qilishni yaxshi ko'rardi. Va, albatta, har safar ularga uchish qanchalik ajoyib bo'lishi haqida o'ylardim!". Natijada Konstantin Eduardovich yoqilg'ida ishlaydigan raketani ixtiro qildi. Yonish paytida yoqilg'i bug'lanib, kuchli gaz oqimini chiqarib yubordi, bu esa raketani yuqoriga Gorenje qildi.

Ammo, agar Siolkovskiy umuman kosmonavtikaning otasi deb hisoblansa, u holda Korolev Sergey Pavlovich raketa fanining otasi hisoblanadi. Aynan u nafaqat raketani yerdan qanday tortib olish va tortishish kuchini yengish, balki kosmik kemani qanday boshqarishni ham o'ylab topishga muvaffaq bo'ldi.

Birinchi raketaning rasmiy uchirish sanasi 1937-yil 11-aprel. Ammo o'tgan asrning 50-yillardan boshlab kosmik tadqiqotlar uchun raketalar doimiy ravishda ishga tushirila boshlandi.

Aslida, sovet olimi ixtiro qilgan raketaning ishlash prinsipi zamонавиy kosmik samolyotlarda ham ishlaydi. Ya'ni, hozirda uchayotgan raketalar reaktiv tortishish tufayli yerning tortishish kuchini yengib chiqmoqda. Yoqilg'i baklaridagi suyuqlikning yonishidan ajralib chiqadigan energiya yerdan ulkan kuch bilan itarishga yordam beradi. Qiziqarli fakt: raketa parvoz paytida yoqilg'ining "sher" qismini sarflaydi! Ya'ni, jami aksiyalarning taxminan 90%. Uchish paytida yonish kuchi shunchalik kuchlik, bir necha daqiqada yoqilg'i bug'lanadi.

### Raketa qanday uchadi?

Biz allaqachon bilamizki, kosmosga uchish uchun katta kuch kerak. Shuning uchun raketa juda katta.

Kosmik uchish obyekti qadamlardan iborat. Bosqichlar raketalar bo'linmalari deb ataladi, ular





Birinchi bosqich ajratilganda, ikkinchi bosqich yoqiladi, uning ichida dvigatel va tanklardan raketa ham bor...va bu to'rt bosqichga qadar bo'lishi mumkin. Eng katta qadam, bu, albatta, yerga yaqinroq. Axir, siz sayyoramizdan ajralishingiz kerak, esingizdam? Bu bir tonna yoqilg'i sarflashni anglatadi. Shunga ko'ra, har bir keyingi bosqich kichikroq.

#### **Ammo bunday qiyinchiliklar nima uchun?!**

Shunday qilib, raketaning samaradorligi oshadi! Soddalashtirilgan versiyada olim Siolkovskiyning formulasi quyidagicha: raketaning uchish paytida boshlang'ich massasiga nisbatan marrada og'irligi qancha kam bo'lsa, raketa shunchalik samarali bo'ladi".

#### **Hali ham tushunarsizmi?**

Tasavvur qilaylik, biz sharsharaga sayohat qildik. Tabiiyki, hamma o'zлari bilan oziq-ovqat bilan katta xalta olib kelishdi. Ammo yo'lda biz asta-sekin undagi narsalardan xalos bo'ldik. Oxir-oqibat, biz sharsharaga qanchalik yaqin bo'lsak, xaltalarimiz shunchalik yengillashdi. Shunday qilib, har bir qadam bilan uni ko'tarish osonlashdi va biz endi maqsadga tezroq yetishimiz mumkin!

Ushbu mantiqqa asoslanib, hamma narsa oddiy ko'rindi! Shunday emasmi? Nima uchun raketa endi yonmaydigan bo'sh tanklarni olib yurishi kerak? Albatta, ulardan qutulish, vaznni kamaytirish va ko'proq energiya tejash yaxshiroqdir.

Bundan tashqari, kosmosda raketadan faqat eng yuqori qismi qoladi. Bu yengil va chaqqon, uni boshqarish oson. Kosmosda katta yoqilg'i zaxiralari talab qilinmaydi, raketani itarish uchun impulsli dvigatellar etarli. Ammo endi tasavvur qiling-a, kosmosda bo'sh tanklar bilan ulkan mashina uchmoqda. Tasavvur qildingizmi? Shuning uchun raketani butun kosmosga yuborish har doim ham foydali emas!

uchish paytida undan ajraladi. Masalan, birinchi bosqich barcha yoqilg'ilarini ichib qo'yganda, u shunchaki dizayndan ajralib chiqadi. Keyin, xuddi shu narsa ikkinchi bosqichda sodir bo'ladi va hokazo. Faqat raketaning eng yuqori qismi kosmik kema qolmaguncha ajralaveradi.

Agar siz raketaning tuzilishiga pastdan yuqoriga qarasangiz, birinchi navbatda "ko'krak qismi" keladi - oddiy so'zlar bilan aytganda, bu yonayotgan gaz buluti chiqadigan teshik. Keyinchalik, ulkan nasoslar yaqinlashadigan yonish kamerasi mavjud. Ushbu nasoslar orqali yonilg'i va oksidlovchi kameraga kiradi. Yonuvchan ulkan tank faqat nasoslar ustida, undan ham yuqori – oksidlovchi tank.

Aytgancha, oksidlovchi kerak! Chunki kislорodsiz yoqilg'i yonmaydi. Shunday qilib, raketa vakuumda harakat qilishni davom ettirish uchun nafaqat yoqilg'ini, balki katta oksidlovchi idishni ham "zaxiralashi" kerak.

Keyin asboblar bo'limi keyingi o'rinda turadi. Aslida u raketani boshqarish uskunasiga ega. Xo'sh, kosmik kema raketa dizaynni yakunlaydi, bu raketaning eng yuqori cho'qqisi. Oxir-oqibat kosmosda o'z vazifalarini bajarish uchun kosmik kema qoladi.

#### **Nima uchun raketa qadamlardan iborat, uni bir bo'lak qilib bo'lmaydi?**

Qo'qmang! Hech bir zamонави raketa tuzilmasi buzilmagan. Ularning barchasi ko'p bosqichli. Aslida, birinchi bosqich ichida yana bir raketa bor, biz allaqachon dvigateldan, kislорod va oksidlovchi tanklardan bilamiz.

## TAHRIRYAT

Bosh muharrir  
**Hakimov Akbar**  
 akademik

Bosh muharrir o'rinnbosari  
**Kremkov Mixail**  
 professor

Mas'ul kotib  
**A'lo Isakova**

**Abdurahmonov Qalandar**, akademik  
**Abdullahayev Masharib**, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Alimova Dilorom**, professor  
**Allayev Qahramon**, akademik  
**Aripova Tamara**, akademik  
**Asqarov Ahmadali**, akademik  
**Ayupov Shavkat**, akademik  
**Mirsaidov Mirziyod**, akademik  
**Pidayev Shokir**, tarix fanlari nomzodi  
**Sobirov Ravshan**, akademik  
**Sagdullayev Anatoliy**, akademik  
**Saidov Akmal**, akademik  
**Tojiboyev Komiljon**, akademik  
**To'rayev Abbasxon**, akademik  
**Egamberdiyev Shuhrat**, akademik  
**Hayitov Shuhrat**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## JAMOATCHILIK KENGASHI

Kengash raisi  
**Yo'idashev Behzod Sodiqovich**  
 O'zR FA prezidenti, akademik

Kengash raisi o'rinnbosari  
**Bahodirov G'ayrat Otaxonovich**  
 O'zR FA Bosh ilmiy kotibi, professor

**Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich**  
 O'zR FA vitse-prezidenti, professor

**Abduhalimov Bahrom Abdurahimovich**  
 O'zR FA vitse-prezidenti, professor

**Turdiqulova Shahlo O'tkurovna**  
 O'zR FA vitse-prezidenti, professor

**Ibragimov Baxtiyor To'laganovich**  
 O'zR FA prezidenti maslahatchisi, akademik



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI ILM-FAN TARG'IBOTI MARKAZI

"Fan va turmush". Ilmiy-ommabop jurnal.  
 Har chorakda bir marta chiqadi.

1933-yildan chiqsa boshlagan.  
 12 yoshdan kattalar uchun.  
 Muassis: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
 Jurnal o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.  
 Jurnal 2006-yil 6-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligida ro'yxatga olingan. Guvohnoma: № 0022.

O'zbek tili muharriri – **M.S. Abdullayev**  
 O'zbek tilidan rus tiliga tarjimon – **D.Sh. Abdullayev**  
 Dizayner, sahifalovchi – **N.M. Vyatkina**  
 Menejer – **Sh. Xushvaqov, X. Xolmurow**  
 Muhbir – **S.Asatullayeva**  
 Fotograf – **V. Goncharenko**  
 Jurnalda **V. Vyatkin, A. Hakimov** fotolaridan foydalanildi.

© Materiallarni faqat tahririyat ruxsati bilan qayta chop etish mumkin.  
 Nashr etilgan materiallar va e'londarda ko'rsatilgan faktlarning to'g'riligi va ishonchliligi uchun ularning mualliflari javobgardir.  
 Mualliflarning fikri tahririyatning fikri bilan mos kelmasligi mumkin. Qo'lyozmalar ko'rib chiqilmaydi va qaytarilmaydi.

**Bizning manzil:** 100047, Tashkent, Ya.G'ulomov ko'chasi, 70-uy.  
 Tel.: 71 2334305  
 Elektron pochta: fanturmush@gmail.com  
 Jurnal veb sahifasi: www.fvat.uz

Jurnal "SILVER STRA PRINT" MCHJ bosmaxonasida  
 chop etilgan.

Bosmaxona manzili: Toshkent, Olmazor tumani,  
 Qorasaroj ko'chasi, Ibrohim ota, 322 B-uy  
 Tel.: 99 019 24 00  
 Chop etishga ruxsat berilgan: 11.11.2024

"Fan va turmush" №3 (602), 2024-y.  
 Qog'oz o'chami: 60x84 1/8. Hajmi: 8 p.l. Tiraj: 600 nusxa.

© "Fan va turmush"

Jurnalga tahririyatda, istalgan pochta bo'limida obuna agentliklarining vakolatxonalari orqali yoki onlayn obuna bo'lish: <http://www.pochta.uz/subscribe/>  
 Indeks: 899

Bahosi kelishilgan narxda

Jurnalmizning 2024-yil birinchi sonida G. Lasikovaning "Marjoniy jamg'armasi xazinasidagi Mavarounnahr miniatyuralari" nomili maqolasida "Yaman shohining bog' bayrami sahnasi. Sa'diy. "Bo'ston". 1500-yillar. Buxoro. Marjoniy jamg'armasi. IM/R-3. L.15" nomi ostida tahririyat xatosi tufayli boshqa miniatyura taqqdim etilgan. Xatoni tuzatish maqsadida, biz "Yaman shohining bog' bayrami sahnasi. Sa'diy. "Bo'ston". 1500-yillar. Buxoro. Marjoniy jamg'armasi. IM/R-3. L.15" deb nomlangan miniatyura asarini chop etdik.

که حسنه از متعالات آن پیش  
که نه کن اردنه دیسم و کن

شند م که جشنی ملکا نساخت

چو حنف اند ران بیم خلقی نواخت



Indeks: 899



Radioaktiv parchalanish (vizual modul) - bu  
beqaror atom nurlanish orqali energiyani  
yo'qotadigan mexanizm